



# ALFRAGANUS

XALQARO ILMIY JURNAL

2026-yil • 1-jild • 16-son



## BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

Alfraganus university nashriyoti

ISSN: 2992-8974

## Tahririyat Kengashi

## LOYIHA RAHBARI

**Ismailov Azizbek Ruzimahmatovich**

Ismailov Azizbek Ruzimahmatovich  
Alfraganus Universiteti rektori, PhD,  
dotsent  
Rector of ALFRAGANUS UNIVERSITY,  
PhD, associate professor

## BOSH MUHARRIR

**Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich**

Egamberdiyev Farmonkul Tursunqulovich  
Alfraganus Universiteti rektori  
maslahatchisi, professor, iqtisodiyot  
fanlari doktori  
ALFRAGANUS UNIVERSITY Rector's  
advisor, Professor, Doctor of Economics

BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI**Muminov Nozim Gaffarovich**

Muminov Nozim Gaffarovich  
Alfraganus Universiteti prorektori,  
professor, iqtisodiyot fanlari nomzodi  
ALFRAGANUS UNIVERSITY vice-rector,  
professor, candidate of economic sciences

## MAS'UL KOTIB

**Xo'jayev Mo'minjon Isoxonovich**

Khujayev Muminjon Isoxonovich  
Alfraganus Universiteti prorektori, falsafa  
fanlari doktori (DSc), professor  
ALFRAGANUS UNIVERSITY vice-rector,  
Doctor of Philosophy (DSc), professor

## Tahririyat kengashi

- 01 **Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich**  
O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent shahridagi G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali rektori academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of economic sciences, Rector of the branch of G.V.Plekhanov Russian University of Economics in Tashkent.
- 02 **Vaxabov Abduraxim Vasikovich**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
professor, doctor of economic sciences (DSc), head of the department at the National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
- 03 **Murtazayeva Raxbar Xamidovna**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of history
- 04 **Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori professor of Tashkent State University of Economics, doctor of philosophy
- 05 **Rahmonov Rasul Nematovich**  
Toshkent shahridagi Webster universiteti ijrochi direktori, PhD, professor  
Executive director, Webster University in Tashkent, PhD, professor
- 06 **Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
professor, doctor of economic sciences (DSc), head of the department at the National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
- 07 **Umarov Baxriddin Mengboyevich**  
Alfraganus Universiteti professori, psixologiya fanlari doktori  
doctor of psychological sciences (DSc), professor of the ALFRAGANUS UNIVERSITY
- 08 **Egamberdiyeva Yulduz Xamroqul qizi**  
O'zbekiston Milliy universiteti, PhD, Tabiiy geografiya kafedrasida dotsent  
National University of Uzbekistan, PhD, Assistant professor of the department of Physical geography
- 09 **Qaxxorova Matluba Mannofovna**  
O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'icha qo'mita raisi o'rinbosari, professori, falsafa fanlari doktori  
Deputy Chair of the Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy (DSc), professor
- 10 **Xalmirzayev Axmadjon Axunovich**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi  
associate professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, candidate of geography
- 11 **Zakirov Nodir Uzuyevich**  
Respublika Ixtisoslashtirilgan Kardiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi bo'limi rahbari, tibbiyot fanlari doktori  
Head of the Department of the Republican Specialized Cardiology Scientific and Practical Medical Center, Doctor of Medical Sciences
- 12 **Abduraximova Lola Anvarovna**  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, tibbiy fundamental fanlar kafedrasida professori, DSc  
Tashkent international university Kimyo, professor of the department of basic medical science, DSc
- 13 **Jalilov Fazliddin Sodiqovich**  
ALFRAGANUS UNIVERSITY "Farmatsiya va kimyo" kafedrasida mudiri, Farmatsevtika va kimyo fanlari doktori, professor. f.jalilov@afu.uz  
ALFRAGANUS UNIVERSITY Head of the "Pharmacy and Chemistry" Department, Doctor of Pharmaceutical and Chemical Sciences, professor. f.jalilov@afu.uz
- 14 **Norov Toji Omonovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori  
Professor of Tashkent State University of Economics, Doctor of Philosophy
- 15 **Shukurov Yorkin Alidjanovich**  
PhD, O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi dotsenti  
PhD, an associate professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan

## Tahririyatning xalqaro kengashi

- 01 **Birol Merkan**  
Najmaddin Erbakan nomidagi davlat universiteti, Siyosiy fanlar fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida professori, fan doktori (Turkiya Respublikasi)  
Professor, Doctor of Science, Faculty of Political Sciences, Department of Economic Theory, State University named after Najmaddin Erbakan (Republic of Turkey)
- 02 **Altunina Varvara Viktorovna**  
I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Oliy biznes va tadbirkorlik maktabi direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)  
Director of the Higher School of Business and Entrepreneurship, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Doctor of Sciences (Pedagogy), Professor (Russian Federation)
- 03 **Aliyeva Inobbat Akramovna**  
I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Boshqaruv va hududiy rivojlanish Institutining talaba salohiyatini rivojlanishi ta'lim ilmiy klasteri boshlig'ining muovini, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)  
Deputy Head of Student Potential Development at the Institute of Management and Regional Development, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Associate Professor (Russian Federation)
- 04 **Raximshikova Mavluda Karimjanovna**  
Muxtor Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi (Qozog'iston)  
associate professor of South Kazakhstan University named after Mukhtar Auevov, candidate of philosophy (Kazakhstan)
- 05 **Zenkova Inga Vladimirovna**  
Yevrosiniya Polotskaya nomidagi Polotsk davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida mudiri, PhD, dotsent (Belarus Respublikasi)  
Head of the Economics Department of the Euphrosyne Polotskaya State University of Polotsk, PhD (Republic of Belarus)
- 06 **Turmetov Batirxan Xudaybergenovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti "Matematika" kafedrasida professori. batirkhan.turmetov@ayu.edu.kz (Qozog'iston)  
Professor, Doctor of Science, Khoja Ahmed Yasawi University. Department of Mathematics. batirkhan.turmetov@ayu.edu.kz (Kazakhstan)
- 07 **Bunkin Nikolay Fedorovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor. N.E. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti. Fundamental fanlar fakulteti. nbunkin@mail.ru nbunkin@bmstu.ru (Rossiya Federatsiyasi)  
Department of Fundamental Sciences, Bauman Moscow State Technical University, nbunkin@mail.ru nbunkin@bmstu.ru (Russian Federation)
- 08 **Gulgaysha Sagidolda**  
filologiya fanlari doktori, L.N.Gumilev nomidagi Yevroasiyo milliy universiteti professori. sagidolda\_g@enu.kz. (Qozog'iston)  
Doctor of Philology, Professor of the L.N. Gumilev Eurasian National University. sagidolda\_g@enu.kz (Kazakhstan)
- 09 **Boshkayeva Asil Knnesovna**  
farmatsevtika fanlari doktori, professor, S.D.Asfandiyarov nomidagi Qozog'iston Milliy Tibbiyot universiteti Farmatsevtika va toksikologiya kimyosi kafedrasida mudiri. boshkaeva.a@kaznmu.kz (Qozog'iston)  
Doctor of Pharmaceutical Sciences, professor, Head of the Department of Pharmaceutical and Toxicological Chemistry at S.D. Asfandiyarov Kazakhstan National Medical University. boshkaeva.a@kaznmu.kz (Kazakhstan)
- 10 **Askiah Jamaluddin**  
PhD, Dr. Inson ekologiyasi fakulteti, Resurslarni boshqarish va iste'molchi tadqiqotlari bo'limi. Putra Malaysia Universiteti. askiah@upm.edu.my. (Malayziya)  
PhD, Dr. Department of Resource Management & Consumer Studies, Faculty of Human Ecology, University Putra Malaysia. askiah@upm.edu.my. (Malaysia)

## MUNDARIJA

**Ismailov A.**

**KELAJAKKA SARMOYA:**

**DAVLAT YOSHLARNI QANDAY QO‘LLAMOQDA** 3

**Masharipova G.**

**SO‘FI OLLOYOR IJODIDA TASAVVUFYIY-AXLOQIY  
G‘OYALAR VA MA‘RIFIY TENDENSIYALAR** 6

**Ko‘chimov U.**

**REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT”  
HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY  
PSIXOLOGIZM** 11

**Ниязова Р.**

**ОПТИМИЗАЦИЯ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ  
ПАТРИОТИЗМОВ НА ОСНОВЕ СИСТЕМ  
МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНО-  
ТРЕНИРОВОЧНЫМ ПРОЦЕССОМ** 22

**Xujamuradova S.**

**EKSPORT FAOLIYATI AUDITINING TASHKILIY-  
USLUBIY ASOSLARI** 30

**Inagamova F.**

**YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLAR  
TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOYIY-MADANIY  
VA FALSAFIY JIHATLARI** 36

**Xayitov Z.**

**KONUSSIMON BARABANLI GIDROTURBINA  
KONSTRUKSIYASINI TANLASH VA ASOSLASH** 43

**Халилов С, Хубони С.**

ТУРИЗМНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН  
ТАРТИБГА СОЛИШ САМАРАДОРЛИГИ 55

**Насыров А.**

ВОДНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
И ДИСКУССИЯ О ПЕРЕБРОСКЕ ЧАСТИ СТОКА  
СИБИРСКИХ РЕК: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И  
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ 63

**Ruzmetova D.**

KASA IS A PROFESSIONAL DEVELOPMENT  
PROGRAM FOR FOREIGN LANGUAGE  
TEACHERS IN UZBEKISTAN 67

**Rakhmatullaev I, Bunkin N, Hoshimov Q,  
Abdusattorov B.**

STUDY OF OPTICAL PROPERTIES OF  
MICROSTRUCTURED POWDERS OF DIAMOND,  
ZINC OXIDE AND TITANIUM DIOXIDE UNDER  
PULSE-PERIODIC LASER EXCITATION 73

**Ibraximov S.**

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM  
TURMUSH TARZIGA OID KOMPETENSIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK  
ASOSLARI 84

**Хамидходжаева Н.**

РУССКИЙ ЯЗЫК В ВУЗАХ С НАЦИОНАЛЬНЫМ  
ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ 97



**Alfraganus universiteti**  
**rektori**  
**I.f.d. (PhD) dotsent**  
**A.R.Ismailov**

### **KELAJAKKA SARMOYA: DAVLAT YOSHLARNI QANDAY QO'LLAMOQDA ?**

Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoev yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi, unda hududlardagi 60 mingdan ortiq yoshlar vakillari qatnashdi.

Xabar qilinishicha, 22 milliondan ziyod yoshlar O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotda katta salohiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Yoshlarni til o'rgatish, kasb-hunar egallash, sport va tadbirkorlik, g'oya va startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi chora-tadbirlar belgilandi.

Misol uchun, qo'shimcha 200 million dollar mablag' ajratilishi, kreditlar miqdorining oshirilishi, startap va biznes loyihalariga investitsiya imkoniyatlari, tadbirkorlik inkubatorlari tashkil etilishi rejalashtirildi.

### **YANGI IMKONIYATLAR DAVRI: YOSHLAR TASHABBUSI – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI**

Yoshlar bilan ochiq muloqot va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha imkoniyatlar belgilab berildi

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida eng ustuvor masalalardan biri – bu yoshlar siyosati, ularning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasidir. Davlat rahbari raisligida o'tkazilgan navbatdagi uchrashuv va ochiq muloqot ana shu strategik yo'nalishni yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Unda mamlakatimizning turli hududlaridan minglab yoshlar ishtirok etdi, yuz minglab yigit-qizlar esa hududlarda onlayn tarzda kuzatib bordi.

Mazkur muloqot shunchaki yig'ilish emas, balki Yangi O'zbekistonning kelajak yo'liga daxldor aniq qarorlar qabul qilingan, yoshlar manfaatlariga qaratilgan kompleks dasturlar belgilab berilgan muhim siyosiy-ijtimoiy voqelik sifatida tarixda qoladi.

### **YOSHLAR – MAMLAKATNING ENG KATTA BOYLIGI**

Bugun O'zbekiston aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Demak, davlatning kelajagi, iqtisodiyoti, fan-texnikasi, madaniyati va jamiyat taraqqiyoti ularning bilim va tashabbusiga bevosita bog'liq.

Muloqot davomida yoshlarning salohiyatini ochish, ularni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish, xorijiy tillar, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Eng muhimi, bu vazifalarni amalga oshirish uchun aniq moliyaviy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlar belgilab berildi.

Yangi qarorlar asosida yoshlar loyihalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratilishi, imtiyozli kreditlar hajmi oshirilishi, grant va investitsiya imkoniyatlari kengaytirilishi belgilandi. Bu – shunchaki raqamlar emas, balki minglab yoshlarning orzusi amalga oshishi uchun yaratilgan real imkoniyatlardir.

### **TADBIRKOR YOSHLAR – IQTISODIY TARAQQIYOT DVIKATELI**

Zamonaviy dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion iqtisodiyot va barqaror o'sishning asosiy omili – yosh tadbirkorlardir. Shu nuqtai nazardan, uchrashuvda "Yoshlar biznes inkubatori" tizimini kengaytirish, startap loyihalarni moliyalashtirish, ilg'or g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun alohida dasturlar ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Bu tashabbuslar yoshlarni faqat ish izlovchi emas, balki ish beruvchi, yangi ish o'rinlari yaratuvchi kuchga aylantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududlarda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlarni kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilish bo'yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Imtiyozli kreditlar ajratish tartibining soddalashtirilishi, kafillik va garov talablarining yengillashtirilishi yosh tadbirkorlar uchun katta rag'bat bo'ladi. Bugungi qarorlar ertangi kunda minglab yangi korxonalar, innovatsion ishlab chiqarishlar va eksportbop mahsulotlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

### **TIL VA KASB – MUVAFFAQIYAT KALITI**

Yoshlar bilan muloqotda ta'lim masalalari markaziy o'rin egalladi. Ayniqsa, xorijiy tillarni puxta o'rganish, IT sohasida bilim va ko'nikmalarni oshirish, xalqaro sertifikatlar olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Bugun raqobatbardosh kadr bo'lish uchun faqat diplom yetarli emas. Chuqur bilim, amaliy ko'nikma, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish – asosiy talab. Shu bois, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish, qisqa muddatli intensiv kurslar tashkil etish, ish beruvchilar bilan hamkorlikda dual ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir tuman va shaharda yoshlar uchun kasb-hunar markazlari faoliyatini kengaytirish, ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, malakali mutaxassislarni jalb qilish – bugungi kun talabi sifatida belgilab berildi.

## **YOSHLAR SIYOSATIDA YANGI BOSQICH**

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati shunchaki ijtimoiy dastur emas, balki davlat taraqqiyotining strategik yo'nalishiga aylandi. Ushbu muloqot ana shu siyosatning navbatdagi amaliy bosqichi bo'ldi.

Yoshlarning muammolarini eshitish, ularning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, davlat idoralari faoliyatini yoshlar manfaatiga yo'naltirish – bugungi islohotlarning muhim qismiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarni asrash ham ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi. Chunki iqtisodiy taraqqiyot ma'naviy barqarorlik bilan uyg'un bo'lgandagina samara beradi.

## **KELAJAK – YOSHLAR QO'LIDA**

Muloqot davomida aytilgan fikrlar va qabul qilingan qarorlar bir haqiqatni yana bir bor tasdiqladi: Yangi O'zbekistonning kelajagi – yoshlar qo'lida. Davlat esa ularga ishonch bildirmoqda, imkoniyat yaratmoqda va qo'llab-quvvatlamoqda.

Yoshlar uchun ajratilayotgan qo'shimcha mablag'lar, grantlar, imtiyozli kreditlar, ta'lim va kasb imkoniyatlari – bularning barchasi mamlakat kelajagiga kiritilayotgan sarmoyadir.

Endilikda asosiy vazifa – ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish, har bir yosh o'z salohiyatini namoyon etishi, o'z orzusini amalga oshirish yo'lida faol harakat qilishidir. Chunki imkoniyat bor joyda natija ham bo'ladi.

## **YANGI O'ZBEKISTON – IMKONIYATLAR MAKONI**

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda ochiqlik, adolat va imkoniyatlar muhiti shakllanmoqda. Yoshlar bilan o'tkazilgan mazkur uchrashuv ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Bugungi qarorlar ertangi muvaffaqiyatlarning poydevoridir. Yoshlar tashabbusi qo'llab-quvvatlangan, ularning ovozi eshitilgan, g'oyalari amaliyotga joriy etilgan jamiyat – albatta taraqqiy etadi.

Yangi O'zbekistonda har bir yosh uchun imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Bu eshikdan kirish, bilim olish, mehnat qilish va yuksalish esa yoshlarning o'z qo'lida.

Shu ma'noda, bugungi muloqot – tarixiy ahamiyatga ega voqea. U nafaqat yangi imkoniyatlarni belgilab berdi, balki yoshlarga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi.

## **ZERO, YOSHLARIGA ISHONGAN MILLAT – O'Z KELAJAGIGA ISHONADI.**

УДК 81'25:81'27

**Masharipova Gularam Kamilovna***Alfraganus university**professori, falsafa fanlari doktori*

ORSID: 0009-0007-0788-2359

*email: [masharipova.gularam2006@gmail.com](mailto:masharipova.gularam2006@gmail.com)*

## SO'FI OLLOYOR IJODIDA TASAVVUFIIY-AXLOQIIY G'OYALAR VA MA'RIFIY TENDENSIYALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqola So'fi Olloyor ijodida tasavvufiiy-axloqiiy g'oyalar va ma'rifiy tendensiyalarni chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Olloyorning asarlarida insonning ruhiy va axloqiiy tarbiyasi, ichki dunyo tafakkuri, odob-axloq me'yorlari hamda ma'rifiy yuksalish masalalari tahlil qilinadi. Muallifning tasavvufiiy falsafasi va axloqiiy qarashlari orqali jamiyatdagi ma'rifiy tendensiyalarning shakllanishi va ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** So'fi Olloyor, tasavvuf, axloq, ma'rifat, ruhiy tarbiya, ichki dunyo, insoniy qadriyatlar, adabiy meros, falsafa, ma'rifiy tendensiyalar, ezgulik

## СУФИЙСКО-НРАВСТВЕННЫЕ ИДЕИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ СУФИ ОЛЛОЙРА

**Аннотация.** Статья посвящена всестороннему изучению суфийско-нравственных идей и просветительских тенденций в творчестве Суфи Оллоюра. В работе рассматриваются вопросы духовного и нравственного воспитания человека, развития внутреннего мира, соблюдения моральных норм и просветительского роста. Через философию суфизма и нравственные взгляды автора раскрывается формирование просветительских тенденций и их значимость в обществе.

**Ключевые слова:** Суфи Оллоер, суфизм, нравственность, просвещение, духовное воспитание, внутренний мир, человеческие ценности, литературное наследие, философия, просветительские тенденции, добродетель

## SUFI-ETHICAL IDEAS AND EDUCATIONAL (ENLIGHTENMENT) TENDENCIES IN THE WORKS OF SUFI OLLOYOR

**Abstract.** This article is devoted to a comprehensive study of Sufi Olloyor's mystical-ethical ideas and educational tendencies. The research examines human spiritual and moral development, inner reflection, ethical norms, and intellectual

growth as reflected in his works. The author's Sufi philosophy and ethical perspectives reveal the formation of educational tendencies and their significance in society.

**Keywords:** Sufi Olloyor, Sufism, ethics, enlightenment, spiritual education, inner world, human values, literary heritage, philosophy, educational tendencies, virtue

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** So'nggi yillarda jamiyatda axloqiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va ma'naviy o'sish masalalari dolzarb bo'lib qoldi. So'fi allohyor ijodi shunday qadriyatlarni targ'ib qilgan: insonni kamolga yetkazish, ichki poklik va sabr-toqatga chaqirish, adolat, halollik va saxovat kabi axloqiy printsiplarni targ'ib qilish. Shuning uchun, uning ijodi bugungi jamiyatda ma'naviy va axloqiy tarbiya manbai sifatida katta ahamiyatga ega. So'fi Ollohyor ijodi nafaqat axloqiy, balki ma'rifiy-ijtimoiy yondashuvni ham o'zida aks ettiradi: ilm-fan va ma'rifatga e'tibor, jamiyat taraqqiyotida shaxsning ma'naviy va intellektual roli, yaxshilik, mehr-shafqat va hamjihatlikni targ'ib qilish. Bu tendensiyalar hozirgi kunda ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish, insonlarni targ'ibot va ta'lim orqali tarbiyalash jarayonlarida dolzarb.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).** O'tmishdagi maktab va madrasalarimizda, xususi muallimlar ixtiyorida ta'lim tizimida qur'oni karim, hadisi sharif, haftiyak, chor kitoblar bilan birga mashhur zullisonayn lirik shoir, dostonnavis, islomiy ahkomlarning jon-fido targ'ibotchisi so'fi ollohyorning «sabatul ojizin», «maslak-ul-muttaqin» asarlari ham bir darslik

sifatida o'qitilgan. So'fi ollohyor 1644 yili Kattaqo'rg'onning minglar qishlog'ida ziyoli oilasida dunyoga keladi. otasi temir yor o'g'lining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullandi: u 12 yoshigacha o'z qishlog'ida o'qiydi, keyinchalik buxoroga borib madrasalarda bilim olib, zamonasidagi barcha fanlarni o'rganadi, badiiy ijod sehrini egallaydi, o'zbek va tojik tillarida asarlar yoza boshlaydi. Madrasa xatmidan so'ng So'fi Ollohyor bir necha yil buxoro amirining hisor va qubodiyon tumanlari soliq mahkamalarida ishlaydi, «shumlig'im, rasvolig'im tegdi viloyat xalqiga», deb keyinchalik adib o'zining ana shu faoliyatidan nadomat chekadi [1, 278-b.].

Mutasavvuf shoir bu davr ichida «murod ul-orifin», «siroj ul-ojizin», «mahzan ul-muti'n», «najot ut-tolibin» kabi diniy-falsafiy asarlar yaratdi. u o'z qarashlari bilan ojizlarga, yo'ldan ozganlarga hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib beradi. toliblarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. insofu adolatni, halollik va to'g'rilikni, oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlatni to'lib-toshib kuylaydi, nafs va xudbinlikni qattiq tanqid qiladi. dunyo lazzatlaridan voz kechib, o'zni haqning inon-ixtioriga topshirish falsafasini ilgari suradi. markaziy osiyoda keng tarqalgan yassaviya-jahriya tariqati g'oyalari uchun kurashdi [2, 52-b.].

So'fi Olohyorning dunyoviy ishlarni tark etib, naqshbandiya tariqati yo'liga o'tishini taniqli navoiyshunos olim yoqubjon ishoqov quyidagicha izohlaydi: «ollohyor bojxona xizmatiga kirib, bir necha yil qattiqqo'l, shafqatsiz amaldor sifatida faoliyat ko'rsatadi. shayx habibullohning bir muridi g'ayriqonuniy yo'l bilan buxoroga mol olib kirayotganda ollohyor tomonidan qattiq kaltaklanganligi haqidagi rivoyat juda mashhur». Olohyor Shayx Habibulloh ta'sirida naqshbandiya tariqatiga kirib, mansabi va boshqa dunyoviy amallarni tark etadi. u o'n yil shayx habibulloh madrasasida ta'lim olib, etuk olim va valiy darajasiga etishadi.

So'fi Olohyor o'zbek adabiyoti tarixida navoiydan so'ng naqshbandiya tariqatini she'riy shaklda eng izchil targ'ib qilgan ulug' so'z san'atkori hisoblanadi. uning asarlari, garchand diniy-tasavvufiy axloq tashviqiga qaratilgan irfoniy adabiyot namunasi bo'lsa ham, o'zining takrorlanmas san'atkorona uslubi tufayli badiiy she'riyatning eng yuksak namunalari sifatida e'tirof etilgan [3, 103-113-bb]. So'fi Olohyorning islomiy aqidalar yalovbardori darajasiga etishishida uning shayx navro'zga qo'l berib, undan dars olishi, mashhur ofoqxoja eshon, otashzabon shoir mashrablar bilan mu-loqotlari, oddiy mehnatkash xalq hayoti, ruhiyati bilan yaqinoroq tanishuvi muhim bosqich bo'lgan. umrining ko'p qismini so'fistik g'oyalarni targ'ib etib, komillik sari intilgan zabardast shoir 1721 yili vaxshivorda

vafot etgan. ollohyorshunos olim I.Suvonqulovning uqtirishicha, bu sana «sabotul-ujizin»ning bir dastxati hamda «Sharhi sufiya» kitobida aniq ko'rsatilgan.

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).**

So'fi Olohyordan bizga qadar katta hajmda ijodiy meros qolgan: turli majmualar, bayozlarda saqlanib qolgan lirik she'rlar, «Murod-ul-orifin», «Maslak-ul-muttaqin», «Maxzan-ul-mutein», «Sabot-ul-ujizin» kabi axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy masnaviyalar shular jumlasidandir [4, 183-b.]. «Sabot-ul-ujizin» so'fi ollohyorning masnaviy shaklida yozgan asari. bugungi kunda «Sabot-ul-ujizin»ni sharhlash ehtiyoji yuzaga keldi. bu ehtiyojni qondirishga tojuddun ismli kishi kirishib sharh yozadi va unga «risolai aziza» nomini beradi. zero, sharh qizi azizaning bir necha bor iltimosi bilan yozilgan edi.

«Risolai aziza» – «Sabotul-ujizin» sharhi asarida keltirilishicha, ollohyorning uch xotini, ikki qizi va bir o'g'li bor edi. bir qizining ismi omina, ikkinchisi halima edi. o'g'li – muhammad sodiq. muhammad sodiq buxoroda tug'ilib yigirma etti yoshiga etganda ota yurti samarqandga ketdi. ollohyor buxoroda qoldi. o'n yildan so'ng ollohyor baytullohni ziyorat qilish uchun azm aylab yo'lda bulg'or yurtiga duch kelib bir oz vaqt qozon shahrida to'xtadi. ul zamonda bulg'orning bir komil so'fisi bor edi. ismi – idris hofiz. ollohyor bu so'fi bilan bir silsilada ekan. ollohyor bulg'ordan arzi rumga borgan. u erda undan karomatlar ko'ringach,

iskandariya shahriga keldi. shu erda dori fanodan baqo uyiga ko'chdi. bu ish rajab oyining yigirma to'qqizinchi kunida bo'ldi. ollohyorning yoshi o'shanda to'qsonda edi. bu 1724 yil 24 aprelga to'g'ri keladi.

So'fi Ollohyor ilm va badiiy ijod jabhasida o'zigacha bo'lgan turkiy va forsiy tildagi ko'p asrlik boy adabiyotni chuqur o'rganib, uning o'ziga xos an'alarini chuqur o'zlashtirib kirib keldi. shubhasiz, uning badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlari hayotiy his-tuyg'ularning ifodasi sifatida yuzaga kelgan. zeroki, hech kim ham tayyor mutafakkir shoir bo'lib dunyoga kelmaydi. shuningdek, hech kim ham dunyo tashvishlaridan, uning shodlik va g'amlaridan tashqarida yashay olmaydi [5, 5-6-bb.]. So'fi Ollohyor adabiy merosi o'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf va o'zbek ma'rifatchiligi tarixida alohida ahamiyatga ega. so'fi ollohyor xizmatlarining buyukligi shundaki, agar xoja ahror vali, maxdumi a'zam kabi alloma bobokolonlarimiz so'fiya tariqati ta'limotlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda namuna ko'rsatgan bo'lsalar, so'fi ollohyor bu tariqatning barcha davrlar uchun dolzarb etib, milliy madrasalarning ta'lim tizimiga olib kirdi. o'z ijodida komil insonni tarbiyalashni bosh maqsad qilib oldi. u o'zining ana shu xizmati bilan davrlarning, millionlab kishilarning muallimi va murabbiysiga aylandi, buyuklik kasb etdi [6, 6-8-bb.].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** So'fi Ollohyorning lirik she'rlari orasida shunday bir namuna

borki, u mutafakkir shoirning dunyo, inson axloqi, faoliyati va taqdiri haqidagi juda chuqur, hayotiy va falsafiy xulosalardan tarkib topgan [7, 15-b.]. So'fi Ollohyorning risolalari keyingi asrlarda, xususan, XIX-XX asrlarda toshkent, qozon, boku va boshqa shaharlarda qayta-qayta chop qilingan, uning nomi xalq orasida mashhur bo'lgan. shuni aytish kerakki, uning ilmiy va adabiy merosi hali mukammal o'rganilgan emas. shoirning ijodini chuqur tadqiq qilish uning dunyoqarashidagi tasavvuf g'oyalari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarining muhim xususiyatlarini ochishga imkon beradi degan umiddamiz [8, 200-b.]. Risola nihoyalik va benihoyalik masalalariga bag'ishlangan. muallif bu masalani yuqoriga yuksaluvchi aylanma harakat ko'rinishida hal qiladi. olimning tasavvurich «yuqorida turuvchi» va «quyida turuvchi» degan bosqichlar mavjuddir.

XVII-XVIII asrlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, Movarounnahr xalqlari ijtimoiy-badiiy, falsafiy merosiga hissa qo'shgan muhammad sharif buxoriy ijodiyotiga ham nazar tashlash o'rinlidir. muhammad sharif buxoriy «al-mavlaviy» laqabi bilan mashhur bo'lgan olim XVII asrdagi movarounnahr mutafakkirlarining yorqin namoyondalaridan biridir. U o'z ijodida yolg'iz falsafaga oid bilimnigina emas, balki tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik kabi sohalarni ham qamrab olgan [9, 169-174-b.]. Uning bizgacha

yigirmadan ortiq asari etib kelgan va ulardan «ar-risola al-davriyya» («davriylik haqidagi risola») asari Buxoroda yozilgan va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [10, 43-50-bb.]. Bitilgan yili noma'lum. Qo'lyozmasining bir nechta nusxalari mavjud. shulardan biri «risolatu istilzami davr min tasalsul» («Davriylikning muttasillikka zaruriy tobeligi haqida») risolasidir [11, 62-64-bb.].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** So'fi Olloyorning g'oyaviy-estetik qarashlari orqali tasavvuf - faqatgina diniy-falsafiy tizim emas, balki shaxs tarbiyasining

mukammal modeli sifatida ilgari suriladi. Olloyor ijodining yana bir muhim jihati - ma'rifiy tendensiyalardir. U ilm, donishmandlik, axloqiy yetuklik va Allohga yetishish yo'lini aql, qalb va amal uyg'unligi asosida talqin etadi. Bu jihatlar, ayniqsa, o'quvchi va yoshlarda ma'naviy barkamollikka intilish hissini uyg'otuvchi manbaa sifatida qadrlanadi. Uning axloq, sabr, halollik, ixlos, tavhid kabi tushunchalarga bergan chuqur falsafiy yondashuvi bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, balki yangi ma'naviy talqinlar uchun manba bo'lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Хамиджон Хомидий. Кўхна Шарқ дарғалари. «Шарқ», Тошкент, 1999, 278-бет.
2. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent, Sharq, 2024, 52-бет.
3. Ёқубжон Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 2002, 105-113-бетлар.
4. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. «Шарқ», Тошкент, 2004, 183-бет.
5. Рисолаи азиза. «Саботул ожизин» шарҳи. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент. 2000, 5-6-бетлар.
6. Иноятулла Сувонқулов. Сўфи Оллоҳёр. Самарқанд, 2000, 6-8-бетлар.
7. Шуҳрат Сирожиддинов. Сўфи Оллоҳёр илоҳиёти. 1-қисм. Тошкент, 2001, 15-бет.
8. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Тошкент, «Ўзбекистон», 1995, 200-бет.
9. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174.
10. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamuun. Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: [intentresearch.org/index.php/irsj/index](http://intentresearch.org/index.php/irsj/index) - pp. 43-50.
11. Masharipova G.K. So'fi Olloyorning tasavvufiy qarashlari. - Alfaraganus xalqaro ilmiy jurnal, 2025 yil N 4(15). - b. 62-64.

UDK: 821.111(73)-3.09:159.9

**Ko'chimov Ulug'bek****Qo'chqarovich***Alfraganus universiteti Xorijiy tillar**kafedrası mudiri**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa**doktori, dotsent**Toshkent, O'zbekiston**ulugbekkuchimov1975@gmail.com*<http://orcid.org/0000-0001-7356-4809>**REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT” HIKOYASIDA APOKALIPSIS  
VA BADIY PSIXOLOGIZM****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Rey Bredberining “Ertaga qiyomat” hikoyasi psixologik-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi fantastik adabiyotda apokalipsis motivining inson ruhiyati bilan bog'liq talqinini ochib berish hamda badiiy psixologizmning zamonaviy ko'rinishlarini aniqlashdan iborat. Maqolada muammo sifatida ommaviy madaniyatda apokalipsis odatda vahima va ijtimoiy inqiroz bilan bog'lanib talqin qilinishi, Bredberi hikoyasida esa ushbu stereotipga zid psixologik model taklif etilishi ilgari suriladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv tanlangan bo'lib, unda badiiy matni struktural-bayoniy tahlil qilish, ekzistensial psixologiya, dahshatni boshqarish nazariyasi hamda narrativ psixologiya konsepsiyalaridan foydalaniladi. Hikoya tahlili uch asosiy yo'nalishda olib boriladi: qahramonlarning o'lim muqarrarligiga munosabati, kundalik turmush marosimlarining psixologik funksiyasi hamda oddiylik tushunchasining falsafiy talqini doirasida tahlil etiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hikoyada apokalipsis tashqi falokat sifatida emas, balki ichki ruhiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonlarning vahimasiz, sokin va marosimiy xatti-harakatlari o'lim qo'rquvini yengillashtiruvchi muhim psixologik mexanizm vazifasini bajaradi. Kundalik turmush odatlari — qahva ichish, bolalarni uxlatish, chiroqni o'chirish — ekzistensial barqarorlikni ta'minlovchi ramziylik sifatida talqin qilinadi. Shaxslararo yaqinlik esa hikoyada o'lim xavotiriga qarshi asosiy himoya omili sifatida namoyon bo'ladi. “Ertaga qiyomat” hikoyasi fantastik adabiyotda badiiy psixologizmning o'ziga xos modelini taklif etadi. Asar o'limni inqiroz emas, balki hayot davomida yaratilgan ma'no va munosabatlarning mantiqiy yakuni sifatida anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot fantastik nasrda psixologik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi hamda Rey Bredberi ijodining adabiy-estetik ahamiyatini yangi nazariy kontekstda yoritadi.

**Kalit soʻzlar:** Rey Bredberi, “Ertaga qiyomat”, fantastik adabiyot, badiiy psixologizm, ekzistensial psixologiya, apokalipsis motivi, oʻlim muqarrarlighi, narrativ tahlil, ruhiy holat, falsafiy talqin.

## **APOCALYPSE AND LITERARY PSYCHOLOGISM IN RAY BRADBURY'S STORY "THE LAST NIGHT OF THE WORLD"**

### **ABSTRACT**

This article presents a psychological and philosophical analysis of Ray Bradbury's short story "The Last Night of the World." The primary aim of the study is to examine the representation of the apocalyptic motif in fantastic literature through the prism of human psychology and to identify the specific features of artistic psychologism in Bradbury's prose. The research problem arises from the contrast between the dominant cultural perception of apocalypse as a source of chaos and panic and Bradbury's alternative narrative model, which depicts calm acceptance and emotional stability. The methodological framework of the study is based on an interdisciplinary approach that combines structural and narrative analysis of the literary text with concepts drawn from existential psychology, terror management theory, and narrative psychology. The analysis focuses on three key dimensions: the characters' response to the inevitability of death, the psychological function of everyday routines under existential threat, and the philosophical interpretation of ordinariness as a source of meaning.

The results demonstrate that in "The Last Night of the World" the apocalypse is portrayed not as an external catastrophic event but as an internal psychological condition. The absence of panic, preservation of daily rituals, and emotionally balanced interactions between characters function as mechanisms for reducing existential anxiety. Ordinary actions such as conversation, caring for children, and preparing for sleep acquire symbolic significance and serve to maintain psychological continuity and inner harmony. Interpersonal intimacy is shown to be the central protective factor against death-related fear. The study concludes that Bradbury's story offers a distinctive model of artistic psychologism in fantastic fiction, in which meaning is generated through simplicity, acceptance, and human connection rather than transcendental or ideological explanations. The narrative challenges conventional apocalyptic discourse by presenting death not as a destructive rupture but as a natural culmination of a meaningful life. The findings contribute to the expansion of theoretical perspectives on psychological analysis in fantastic literature and highlight the enduring literary and philosophical value of Ray Bradbury's creative legacy.

**Keywords:** Ray Bradbury, "The Last Night of the World," science fiction, literary psychologism, existential psychology, apocalyptic motif, inevitability of death, narrative analysis, psychological state, philosophical interpretation.

## АПОКАЛИПСИС И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ В РАССКАЗЕ РЭЯ БРЭДБЕРИ "ЗАВТРА КОНЕЦ СВЕТА"

### АННОТАЦИЯ

В статье проводится психологико-философский анализ рассказа Рэя Брэдбери «Завтра — конец света». Цель исследования заключается в выявлении специфики художественного психологизма в фантастической прозе и интерпретации апокалиптического мотива как формы внутреннего экзистенциального переживания человека. В качестве основной научной проблемы рассматривается расхождение между традиционным культурным представлением апокалипсиса как источника паники и разрушения и альтернативной моделью психологической реакции, предложенной в рассказе Брэдбери. Методологической основой исследования является комплексный подход, включающий структурно-нарративный анализ художественного текста, а также концепции экзистенциальной психологии, теории управления страхом смерти и нарративной психологии. Анализ проводится по трем ключевым направлениям: отношение персонажей к неизбежности смерти, функция повседневных ритуалов в условиях предельной ситуации и философское осмысление категории обыденности.

Результаты исследования показывают, что апокалипсис в рассказе представлен не как внешняя катастрофа, а как психологическое состояние. Отсутствие паники, сохранение привычного уклада жизни и ритуализированные действия персонажей выступают эффективными механизмами снижения экзистенциальной тревоги. Повседневные действия — разговор, забота о детях, завершение дня — приобретают символическое значение и выполняют функцию стабилизации внутреннего мира личности. Межличностная близость изображается как ключевой фактор психологической устойчивости перед лицом смерти. В заключении делается вывод о том, что рассказ «Завтра — конец света» формирует особую модель художественного психологизма в фантастической литературе, в которой смысл человеческого существования раскрывается через простоту, принятие и эмоциональную связь. Произведение Брэдбери предлагает альтернативное осмысление апокалипсиса, основанное не на страхе, а на экзистенциальном принятии. Полученные результаты расширяют теоретические представления о психологическом анализе в фантастической прозе и подчеркивают значимость творчества Рэя Брэдбери в контексте современной литературной и психологической науки.

**Ключевые слова:** Рэй Брэдбери, "Завтра конец света," фантастическая литература, художественный психологизм, экзистенциальная психология,

мотив апокалипсиса, неизбежность смерти, нарративный анализ, душевное состояние, философская интерпретация.

## KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda inson ruhiy olamini badiiy idrok etish muammosi yetakchi ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fantastik adabiyotda qahramon psixologiyasini tasvirlash ijtimoiy-falsafiy mazmuni ochib beruvchi muhim estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Fantastik makon va zamon doirasida kechuvchi voqealar qahramon ongida sodir bo'ladigan ichki ziddiyatlar, ruhiy iztiroblar va ongosti jarayonlarini chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Badiiy adabiyotning markazida inson turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish, ruhiyatidagi o'zgarishlarni tasvirlash adabiyotshunoslikning muhim muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Badiiy psixologizm – bu qahramon ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari va nutqining psixologik asoslanishidir. Fantastik asarlarda bu hodisa yanada murakkab va o'ziga xos ko'rinish oladi, chunki ijodkor g'ayritabiiy sharoitlarda insonning botiniy dunyosini sinovdan o'tkazadi.

Adabiyot nazariyotchisi Izzat Sulton ta'kidlaganidek, “*adabiyot – insonshunoslikdir*”. [1, 21] Fantastik asarlar ham, hayotda bo'lishi qiyin bo'lgan hodisalarni tasvirlasa-da, asosi va manbaya baribir hayot bo'lib qoladi. Yozuvchilar qahramonlari orqali inson idrokining qudratini, uning cheksiz

imkoniyatlarini tasdiqlaydilar. Bu esa asarning zamonaviyligi va abadiyligini ta'minlovchi asosiy omildir.

Fantastik asarlarda badiiy psixologizm masalasi insonning jamiyat, texnogen muhit va ma'naviy inqiroz sharoitidagi ruhiy holatini ifodalash bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu bois fantastik adabiyotda psixologik tasvir an'anaviy realizmdan farqli ravishda ramziy, bilvosita va ko'p qatlamli shakllarda yuzaga chiqadi.

Badiiy psixologizm adabiy asarda qahramonning ichki kechinmalari, hissiy holati va ruhiy jarayonlarini ochib berishga xizmat qiluvchi badiiy vositalar tizimidir. [6, 71] Fantastik adabiyotda ushbu jarayon ko'pincha g'ayritabiiy voqelik, alternativ dunyo yoki kelajak jamiyati fonida tasvirlanadi. Natijada qahramon ruhiyati real hayotdagi ijtimoiy muammolar bilan uyg'unlashgan holda ifodalanadi.

Fantastik asarlarda psixologizm faqat ichki monolog yoki muallif izohi bilan cheklanmaydi. Ramzlar, fantastik obrazlar, makon va zamonning o'ziga xos tashkil etilishi qahramon ruhiy holatini bilvosita ochib beruvchi muhim omilga aylanadi. Bu holat fantastik adabiyotda psixologik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jahon fantastik adabiyotida qahramon ruhiy holatlari talqinida muayyan tipologik o'xshashliklar kuzatiladi. Yolg'izlik, begonalashuv,

jamiyatdan uzilish, ma'naviy iztirob kabi psixologik holatlar har ikki adabiy an'anada yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu holatlarning badiiy talqini milliy mentalitet va estetik qarashlarga ko'ra farqlanadi.[2, 80] Adabiyotshunoslikda ruhiy iztirob ko'proq individual fojia sifatida talqin etilsa, o'zbek fantastik nasrida ushbu holatlar ijtimoiy-axloqiy muammolar bilan chambarchas bog'liq holda yoritiladi. Bu esa adabiy ta'sirning bevosita emas, balki qiyosiy-tipologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Fantastik asarlarda makon va zamon qahramon ruhiy holatini belgilovchi faol estetik omil sifatida namoyon bo'ladi. G'ayritabiiy muhit, texnogen jamiyat yoki kelajak manzaralari qahramon ongida qo'rquv, ishonchsizlik va ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. Shu tariqa fantastik makon psixologik tasvirning badiiy samaradorligini oshiradi. Bunday asarlarda tashqi voqelik va ichki kechinmalar o'zaro uyg'unlashib, qahramon ruhiyatini ko'p qatlamli holda ochib berishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot usullari**

Ushbu tadqiqot matni yashirin psixologik va falsafiy modellarni o'zida mujassam etgan tuzilmaviy hikoya artefakti sifatida tahlil qilib, o'zining asosiy usuli sifatida chuqur adabiy tahlildan foydalanadi. Bu yondashuv hikoyalarni madaniy ma'no yaratish amaliyotlari shakllantiriladigan va uzatiladigan maydonlar deb hisoblovchi roviy psixologiya [7, 29]

sohasi bilan hamohangdir. Hikoya uch yo'nalish bo'yicha tahlil qilindi: (1) personajning o'lim muqarrarligiga munosabati, (2) kundalik turmush tartibi va munosabatlardagi yaqinlikning vazifasi hamda (3) oddiqlikning ma'no sifatidagi falsafiy talqini tahlilga tortiladi.

Fantastik adabiyotda qahramon ruhiyati talqini badiiy psixologizmning muhim ko'rinishi bo'lib, u adabiy ta'sir, estetik tafakkur va milliy mental xususiyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz va o'zbek fantastik adabiyotini qiyosiy o'rganish psixologik holatlarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Fantastik asarlarda ruhiy tahlil insonning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, ma'naviy izlanishlari va ichki ziddiyatlarini badiiy ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Natijalar**

XX asr jahon adabiyotida fantastika janri alohida o'rin tutadi va bu janrning rivojlanishida amerikalik yozuvchi Rey Bredberi muhim rol o'ynagan. Uning ijodi fantastik va realistik elementlarning uyg'un sintezi, chuqur falsafiy mazmun va psixologik tahlil bilan ajralib turadi. "Ertaga qiyomat" hikoyasi muallif ijodining o'ziga xos namunasi bo'lib, unda fantastik shakl orqali insoniyat taqdiri, hayot va o'lim muammolari, ijtimoiy-falsafiy masalalar ko'tarilgan.

Rey Bredberi (1920–2012) – XX asr Amerika fantastika va adabiy nasrining eng muhim vakillaridan biri bo'lib, qisqa hikoyalarda inson

psixologiyasi, ekzistensial qo'rquv va hayotning mohiyati haqida chuqur falsafiy fikrlar ifodalaydi [4, 73]. "Ertaga qiyomat" hikoyasi syujet jihatidan oddiy, biroq mazmunan murakkab dramatik tuzilishga ega bo'lib, tashqi falokat emas, balki qahramonlar ruhiy holatidagi o'zgarishlarga asoslanadi.

Rey Bredberining 1951-yilda yozilgan "Ertaga qiyomat" (The Last Night of the World) nomli hikoyasida noodatiy bir apokaliptik ssenariy tasvirlanadi: unda yaqinlashib kelayotgan global halokatni oldindan bilish vahima yoki parokandalikka emas, aksincha, sokin oilaviy davomiylikka olib keladi. Ushbu maqola matnda mujassamlashgan psixologik va falsafiy mexanizmlarni tadqiq etish maqsadida hikoyani ekzistensial psixologiya, dahshatni boshqarish nazariyasi (DBN) hamda narrativ tadqiqotlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bizningcha, Bredberi hikoyasi o'zaro munosabatlarda ma'no topishga asoslangan ekzistensial tan olish shaklini, marosim sifatidagi kundalik odatlarni va yaqinlik orqali o'lim dolzarbligi ta'sirini kamaytirishni modellashtiradi. Hikoya o'limni anglash, hedonik moslashuv hamda ekzistensial xavotirni yengillashtirishda oddiy insoniy munosabatlarning o'rnini kabi masalalar bo'yicha zamonaviy psixologik izlanishlar uchun muhim adabiy misol (keys) bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy tasavvurda apokalipsis, asosan, vahima, zo'ravonlik va ijtimoiy tartibning yemirilishi bilan tavsiflanadi – bu tasvir adabiyot, kino va ommaviy

axborot vositalarida doimiy ravishda mustahkamlanib keladi. Bu ustuvor yondashuv ekzistensial psixologiyadagi xulosalarni aks ettiradi. Unga ko'ra, o'lim dolzarbligi, ya'ni o'z o'limining muqarrarligini anglash, odatda, kuchli xavotir, himoyaviy xulq-atvor va kundalik faoliyatning izdan chiqishiga sabab bo'ladi [10, 189]. Dahshatni boshqarish nazariyasiga ko'ra, insonlar o'limni anglash bilan bog'liq falaj qiluvchi dahshatni yengish uchun murakkab madaniy dunyoqarashlar va o'z-o'zini qadrlash himoya vositalarini (buferlarini) yaratadi.

### Muhokama

Bredberining "Ertaga qiyomat" asari bunga yorqin qarshi misol bo'la oladi. Hikoyada er-xotin umumiy tush ko'rish orqali — bu usul jamoaviy ongsizlik tajribasini ifodalaydi — bugun insoniyat uchun so'nggi tun ekanini bilib oladi. Ularning munosabati sarosima yo'qligi bilan ajralib turadi. Ular qahva ichadi, sokin suhbatlashadi. Farzandlarini o'ringa yotqizib, chiroqni o'chiradi. Hikoya quyidagi savolni o'rtaga tashlaydi: qanday psixologik va falsafiy sharoitlar tasdiqlangan jamoaviy qirilib bitish qarshisida bunday vazminlikka imkon beradi? Ushbu maqolada Bredberi o'limga munosabat bildirishning muqobil modelini shakllantirgan hikoyaviy vositalar tahlil qilinadi, bu model ekzistensial va pozitiv psixologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'lim muqarrarligini umumiy anglash vositasi sifatida jamoaviy tush

ko'rish motivi hikoyadagi universal, bir vaqtda tush ko'rish mexanizmi dahshatni boshqarishning asosiy himoya vositasi bo'lgan inkor etish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. E'tiborlisi, inkorning mavjud emasligi TMT bashorat qilgan tashvishni yuzaga keltirmaydi. Aksincha, er-xotinning voqealarni oldindan bilishi Yalom "uyg'onish tajribasi" [15, 231] deb ataydigan holat vazifasini o'taydi. Bu o'lim bilan yuzma-yuz kelish bo'lib, u nevroitik tashvish uyg'otish o'rniga, nima haqiqatan ham qadrligini oydinlashtiradi. Erning ular yaxshi yashagani va o'zgartiradigan hech narsa yo'qligi haqidagi kuzatuv o'tmishdagi hayotdan qoniqishni ifodalaydi, dahshatni boshqarish nazariyasi buni o'limdan qo'rqishning pasayishi bilan bog'laydi [14, 18].

Kundalik turmush tartibi ekzistensial marosim sifatida namoyon bo'ladi. Hikoyadagi voqealar — qahva ichish, idishlarni yuvish, bolalarni uxlatish — ataylab oddiy qilib ko'rsatilgan. Bredberi bu kundalik tartibni voqelikdan qochish emas, balki uni tan olish sifatida tasvirlaydi. Bu holat ma'noni saqlab qolish nazariyasi [12, 88] bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga hamohangdir. Unga ko'ra, tanish xulq-atvor andozalari ekzistensial inqirozni yengillashtiruvchi yaxlitlik va davomiylik hissini beradi. Har doimgidek, so'nggi kechada ham ado etilgan bolalarni uxlatish marosimi hech qanday g'ayritabiiy harakatlarsiz oddiy bir odatni muqaddas amaliyotga aylantiradi.

Er-xotinning xotirjam suhbat hikoyaning hissiy markazini tashkil etadi. Mehr-oqibat nazariyasi va ekzistensial psixologiya sohasidagi tadqiqotlar yaqin shaxslararo munosabatlarni o'lim qo'rquviga qarshi asosiy himoya vositasi sifatida doimo e'tirof etib keladi [13, 264]. Bredberi qahramonlari bo'lgan juftlik yo'q bo'lib ketishga yolg'izlikda yoki ommaviy vahima ichida emas, balki o'zaro munosabatlardagi samimiyat muhitida yuz tutadi. Ayolning so'nggi harakati — chiroqni o'chirish uchun qo'l uzatishi — erining aynan shuni kutganini aks ettiradi. Bu esa Frankl "ma'noning o'zaro munosabatlardagi manbai" [9, 141] deb atagan chuqur ruhiy uyg'unlikdan dalolat beradi.

Sabablarni qidirish yoki g'ayritabiiylikka intilishning yo'qligi hikoyaning e'tiborli jihatlaridan biridir. Er-xotin ibodat qilmaydi, uzoq falsafiy mulohazalarga berilmaydi va qochishga urinmaydi. Bu jihat hikoyani ekzistensial bezovtalikni diniy yoki mafkuraviy qolipda yoziladigan asarlardan ajratib turadi — ya'ni, "dahshatni boshqarish nazariyasi" "o'lmaslik timsollari" deb ataydigan yechimlarda yozilmagan. Matndan anglashilishicha, ma'no topish uchun transsendentlik (oliy haqiqatga intilish) shart emas; ma'no allaqachon immanentlikda (ichki mohiyatda) va o'zaro munosabatlarda mavjuddir.

Asar boshida qahramonlar dunyoning "ertaga tugashi" haqidagi noma'lum xabarni qabul qiladilar. Xabar hech qanday aniq dalilga ega

emas, shuning uchun hikoyaning asosiy dramatik kuchi tashqi voqelikdan emas, balki ichki psixologik vaziyatdan kelib chiqadi. Bu – zamonaviy fantastik adabiyotda uchraydigan psixologik tahlilning klassik namunasi bo'lib, u voqea ketma-ketligiga emas, balki bosh qahramonning ruhiy reaksiyasiga e'tibor qaratadi.

Asarda ko'p takrorlanadigan dramatik mantiq – qahramonlarning ichki kutish holati va bezovtalilikdir. Bir nechta personajlar bir-biriga o'xshash tushlarni ko'rayotgani haqida hikoya qiladi. Bu voqea individual tajriba emas, balki kollektiv psixologiyaning namoyonidir:

*“Hamma bir xil tushni ko'rgan ekan... shu bir so'zlar, shu bir ovoz...”* [16] – deb aytiladi hikoyada. Bu motiv universal inson qo'rquvi va umidsizlik fikrini ochib beradi.

Bu yerda Bredberi tashqi apokaliptik tasvirdan ko'ra, insonning ichki psixologik oqimini dramatik markazga qo'yadi. Syujet ramziy vositaga aylanadi: u erda apokalipsis tashqi hodisa emas, balki insonning ongi va tasavvuridagi ichki holat sifatida talqin etiladi.

Adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, badiiy psixologizm konteksti – syujet, makon yoki zamon bilan emas, balki qahramonning ichki qarama-qarshiliklari bilan belgilanadi: bu holat ham hikoyada aniq aks ettiriladi.

Hikoyada vaqt aniq belgilanmaydi: “ertaga” tushunchasi

mavjud bo'lsa ham, u aniq vaqt konturiga ega emas. Bu mavhumlik – asarning eng muhim poetik elementlaridan biri bo'lib, u xronotop (vaqt-makon tuzilishi)ni psixologik funksiyaga aylantiradi. Mavhum vaqt Bredberining boshqa hikoyalarida ham umumiy fenomen bo'lib, u insonning vaqt haqidagi tushunchalarini ruhiy holat bilan bog'laydi [6, 33].

Bredberi fantastik asarlarining ko'pchiligida vaqt – fazoviy vaqt emas, balki ichki, subyektiv vaqtni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazar hikoyada ham qiyomat tushunchasi “fizik hodisa” emas, balki ruhiy kechinmalar markazida joylashadi.

Hikoyaning g'oyaviy markazida – insonning o'lim oldidagi psixologik holati va hayotning mohiyati haqidagi savollar yotadi. Bredberi ba'zan o'lim, vaqt va hayot ma'nosini tasvirlash orqali ekzistensial fikrlarni o'quvchiga uzatadi. “Fantastik voqea” bu yerda faqat badiiy metafora bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda bu tur motivlar ko'pincha ekzistensial adabiyot doirasida tushuniladi – inson mavjudligi, mustaqilligi va vaqt oldidagi o'zlik tuyg'usi orqali yoritiladi. Buni Bredberining boshqa asarlaridan ham ko'rish mumkin, masalan “Mayin yomg'irlar yog'adi” kabi hikoyalarida ham o'lim, vaqt va insonning o'rniga oid falsafiy fikrlar mavjud. Bredberining qisqa hikoyalari usluban ham o'ziga xos bo'lib, ular tasvirning ma'nosini oshirish uchun metaforalar, ramzlar va syujetning kam sonli voqealari orqali

ifodalanadi. “Ertaga qiyomat” hikoyasi ham shu uslub doirasida yozilgan bo‘lib, o‘quvchi diqqatini tashqi voqealardan ko‘ra ichki ruhiy tajribaga jamlaydi.

Ushbu yondashuv Bredberini boshqa klassik fantastik yozuvchilardan ajratib turadi: u hozirgi hayotga oid umumiy insoniy savollarni fantastik tasvirlar orqali emas, balki psixologik tasvirlar orqali yetkazadi. Shuning uchun hikoya o‘quvchini hayot, vaqt va mavjudlik haqidagi savollarni yangicha anglashga undaydi.

Rey Bredberining “Ertaga qiyomat” hikoyasi tashqi apokaliptik voqealar qissasidan ko‘ra, inson psixologiyasining chuqur falsafiy ko‘rinishiga e‘tibor qaratadi. Hikoyada birgalikda uchraydigan tush motivi, mavhum vaqt konturi va ichki emas, balki ruhiy apokaliptik voqealar markazga qo‘yiladi. Bu esa hikoyani psixologik-ekzistensial adabiyot kontekstida o‘qishga imkon yaratadi va insonning vaqt, o‘lim va hayot mazmuni haqidagi savollarni zamonaviy badiiy tilda ochib beradi.

Adabiyot nazariyasida hikoya janri haqida turli qarashlar mavjud. D.Quronovning ta’kidlashicha, “*hikoyada qahramon munosabatda voqea-hodisalar tafsilotli bayon etilmaydi, voqea-hodisalarning o‘zi maqsadga aylanadi*” [2, 145]. Hikoya janrining asosiy xususiyati shundaki, unda “*hayotning muayyan bir ko‘rinishi, ma’lum bir lahzasi ifodalanadi*” [5, 78]. Rey Bredberi esa fantastik hikoya

janrida yangicha yo‘l ochib, an’anaviy hikoya qonuniyatlariga fantastik unsurlarni qo‘shish orqali janrni boyitgan.

Adabiyot nazariyasida fantastika “*voqelikda mavjud bo‘lmagan, ammo badiiy tasavvur kuchi bilan yaratilgan g‘ayrioddiy hodisa, obraz yoki vaziyatlar*” sifatida talqin etiladi [2, 156]. Fantastikaning ikki asosiy turi mavjud: ilmiy-fantastika va ertak-fantastika. Ilmiy-fantastika ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari asosida kelajak hayotini tasvirlashga intiladi. Rey Bredberi asarlarida fantastika faqat bezak emas, balki chuqur falsafiy g‘oyalarni ifodalash vositasidir. Uning fantastik asarlari “*dunyoda tinchlikni saqlash*” masalasiga bag‘ishlangan [11, 62]. Muallif fantastik unsurlar orqali hozirgi zamon insonining axloqiy, ijtimoiy va psixologik muammolarini ochib beradi.

Adabiyot nazariyasida “*badiiy psixologizm – qahramonning ichki dunyosini, ruhiy holatini ochib berishning badiiy usullari majmu*” deb ta’riflanadi [6, 134]. Psixologizm “*to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ichki monolog, tushlar, xotiralar)*” va “*bilvosita (portret, peyzaj, detallar orqali)*” usullarda namoyon bo‘ladi [17]. Hikoyada hayot va o‘lim muammosi chuqur falsafiy talqin etilgan. Muallif orqali biz hayotning qisqaligi, vaqtning nisbiylikini, insoniyat taqdirining nozikligini his qilamiz. Sim obrazi orqali muallif shuni ko‘rsatmoqchiki, hayot qanchalik qisqa bo‘lmasin, uni mazmunli, fidokorona yashash kerak.

## XULOSA

“Ertaga qiyomat” hikoyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra adabiy manba bo‘lgani kabi psixologik hujjat hamdir. Bredberi unda boshqariladigan narrativ tajriba yaratadi: o‘lim oldidagi barcha standart himoya mexanizmlari – inkor, savdolashish, qochish – olib tashlanadi va faqatgina juftlikning birgalikdagi sokin hayoti qoladi va bu kifoya deb topiladi. Asar ommabop madaniyatda ham, ilk ekzistensial psixologiyada ham chuqur o‘rnashib qolgan “o‘limni anglash muqarrar ravishda inqirozni yuzaga keltiradi” degan ustuvor qarashga qarshi chiqadi. Aksincha, u o‘zaro munosabatlarga asoslangan, immanent ma‘no yaratish modelini taklif etadi. Bunda oddiylik biz qochadigan emas, balki qaytadigan boshpanaga aylanadi. Asar ekzistensial psixologiya, narrativ tibbiyot va hayotning so‘nggi pallasi

tadqiqotlari bilan shug‘ullanuvchi izlanuvchilar uchun o‘limni dahshat bilan emas, balki shunchaki chiroqni o‘chirishdek oddiy harakat bilan qarshi olish mumkin bo‘lgan shart-sharoitlar haqida ixcham va mazmunga boy bayonni taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, Rey Bredberining “Ertaga qiyomat” hikoyasi fantastik adabiyotning eng yaxshi namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Hikoya chuqur mazmun, yuqori badiiy mahorat, falsafiy umumlashma bilan ajralib turadi va jahon adabiyoti xazinasiga qo‘shilgan qimmatli hissa hisoblanadi. Rey Bredberi ijodini o‘rganish hozirgi zamon o‘zbek fantastika yozuvchilari uchun ham katta ahamiyatga ega. Uning tajribasi, badiiy usullari, psixologik tahlil qobiliyati zamonaviy adabiyot uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 242 b.
3. Yo‘ldosh Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Musiqa, 2006. – 160 b.
5. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018. – 364 b.
6. Ko‘chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi. Monografiya. – Toshkent, 2024. – 123 b.
7. Bruner J. Actual Minds, Possible Worlds / J. Bruner. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1986. – 222 p.
8. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience / M. Csikszentmihalyi. – New York : Harper & Row, 1990. – 303 p.
9. Frankl V. E. Man’s Search for Meaning / V. E. Frankl. – Boston : Beacon Press, 1959. – 165 p.

10. Greenberg J. The causes and consequences of a need for self-esteem: A terror management theory / J. Greenberg, T. Pyszczynski, S. Solomon // *Public Self and Private Self*. – New York : Springer, 1986. – P. 189–212.
11. Heine S. J. The meaning maintenance model / S. J. Heine, T. Proulx, K. D. Vohs // *Personality and Social Psychology Review*. – 2006. – Vol. 10, No. 2. – P. 88–110.
12. McAdams D. P. *The Stories We Live By* / D. P. McAdams. – New York : Guilford Press, 1993. – 336 p.
13. Mikulincer M. Exploring individual differences in reactions to mortality salience / M. Mikulincer, V. Florian // *Journal of Personality and Social Psychology*. – 2000. – Vol. 79, No. 2. – P. 260–273.
14. Vail K. E. A terror management analysis of the psychological functions of religion / K. E. Vail [et al.] // *Personality and Social Psychology Review*. – 2012. – Vol. 16, No. 1. – P. 3–22.
15. Yalom I. D. *Existential Psychotherapy* / I. D. Yalom. – New York : Basic Books, 1980. – 524 p.
16. Rey Bredberi — “Ertaga qiyomat” (“The Last Night of the World” 1951) hikoyasi, tarjima matni: <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/rej-bredberi/rej-bredberi-ertaga-iyomat-ikoya/>
17. Tahliliy va adabiy kontekst bo'yicha umumiy ma'lumotlar: The Best Ray Bradbury Short Stories <https://jerrywbrown.com/wp-content/uploads/2020/02/The-Last-Night-of-the-World-Bradbury-Ray.pdf>

**Ниязова Регина Рустамовна**

д.ф.п.н. (PhD), профессор

Alfraganus University

<https://orcid.org/0000-0002-6004-9215>

## **ОПТИМИЗАЦИЯ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ ПАРАТРИАТЛОНИСТОВ НА ОСНОВЕ СИСТЕМ МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ПРОЦЕССОМ**

**Аннотация.** В статье представлен анализ современных научно-методических подходов к оптимизации учебно-тренировочного процесса паратриатлонистов в системе многолетней подготовки. Установлено, что в специализированной литературе недостаточно разработаны научно обоснованные рекомендации по управлению тренировочными нагрузками и мониторингу функционального состояния паратриатлонистов с учётом специфики ограничений здоровья и этапов спортивного мастерства. Изучены особенности построения структуры подготовки в годичном макроцикле на основе блоковой периодизации с применением систем функционального мониторинга. На основе полученных данных разработано программно-методическое обеспечение оптимизации учебно-тренировочного процесса паратриатлонистов, направленное на повышение эффективности подготовки и устойчивости соревновательных результатов.

**Ключевые слова:** паратриатлон, многолетняя подготовка, оптимизация, мониторинг, управление подготовкой, блоковая периодизация, программно-методическое обеспечение.

## **OPTIMIZATION OF LONG-TERM PARATRIATHLETE TRAINING BASED ON MONITORING AND MANAGEMENT SYSTEMS FOR THE TRAINING PROCESS**

**Abstract.** This article presents an analysis of modern scientific and methodological approaches to optimizing the training process of paratriathlon athletes in the system of long-term preparation. It has been established that scientifically based recommendations for managing training loads and monitoring the functional state of paratriathletes, taking into account the specifics of health limitations and stages of athletic mastery, have not been sufficiently developed in specialized literature. The features of constructing the training structure in the annual macrocycle based on block periodization using functional monitoring systems were studied. Based on the obtained data, software and methodological support for optimizing the training process of paratriathletes was developed, aimed at increasing the effectiveness of preparation and the stability of competitive results.

**Keywords:** paratriathlon, long-term preparation, optimization, monitoring, training management, block periodization, software and methodological support.

**Введение.** В мире паратриатлон считается сравнительно молодым видом спорта. В современных условиях развития адаптивного спорта и паралимпийского движения паратриатлон рассматривается как один из наиболее сложных и наукоемких видов спорта, предъявляющих повышенные требования к функциональной, физической и психофизиологической подготовленности спортсменов с ограниченными возможностями здоровья. Специфика соревновательной деятельности в паратриатлоне, включающей последовательное преодоление дистанций в плавании, велосипедной гонке и беге (или их адаптированных формах), обуславливает необходимость высокой устойчивости адаптационных механизмов организма к нагрузкам различной направленности и интенсивности. Научные исследования в области паратриатлона в настоящее время ориентированы на поиск эффективных средств и методов подготовки, позволяющих обеспечить рост спортивных результатов при одновременном сохранении функционального состояния и предупреждении дезадаптационных процессов. Особую значимость приобретает разработка научно обоснованных подходов к построению учебно-тренировочного процесса, направленных на оптимизацию функциональной и технической

готовности паратриатлонистов, повышение эффективности прохождения соревновательной дистанции и транзитных зон, а также обеспечение стабильности соревновательных результатов в течение продолжительного периода спортивной карьеры.

Мировая практика развития паратриатлона свидетельствует о том, что успешная соревновательная деятельность спортсменов высокой квалификации во многом определяется эффективностью управления учебно-тренировочным процессом в системе многолетней подготовки. Ведущие тренерские школы и научные центры уделяют особое внимание учёту индивидуальных функциональных ограничений, специфике адаптационных реакций и рациональному распределению комплексных тренировочных воздействий, включая так называемые «брик»-тренировки, в структуре макро, мезо- и микроциклов подготовки. Указанные обстоятельства обуславливают необходимость научного разрешения проблем оптимального распределения тренировочных нагрузок различной направленности и величины в системе многолетней подготовки паратриатлонистов. Это требует проведения комплексных исследований структурных и содержательных особенностей учебно-тренировочного процесса с позиций

современных концепций периодизации спортивной подготовки, а также разработки инновационных моделей управления тренировочным процессом на основе систем мониторинга функционального состояния спортсменов. Особую актуальность приобретает создание научно обоснованных механизмов управления подготовкой, обеспечивающих устойчивое развитие спортивного мастерства паратриатлонистов на различных этапах их многолетней подготовки. [1,4,6,8,9].

**Цель исследования** разработать и научно обосновать систему оптимизации учебно-тренировочного процесса паратриатлонистов на основе комплексного мониторинга и управления подготовкой.

**Результаты исследования.** Анализ научно-методических источников свидетельствует о том, что результативность подготовки спортсменов высокой квалификации в циклических видах спорта в значительной степени обусловлена уровнем управляемости учебно-тренировочного процесса, а также внедрением современных систем мониторинга функционального состояния организма. В то же время выявлено, что вопросы структурной организации подготовки паратриатлонистов на различных этапах многолетнего спортивного совершенствования в существующих исследованиях

освещены недостаточно полно [1,4,6,7,9].

В рамках настоящего исследования было разработано программно-методическое обеспечение подготовки паратриатлонистов, адаптированное к условиям многолетнего тренировочного процесса и учитывающее специфику функциональных возможностей спортсменов различных классификационных групп. Осуществлена оптимизация структуры годичного макроцикла на основе принципов блоковой периодизации с выделением накопительных, трансформирующих и реализационных мезоциклов, что способствовало более рациональному распределению тренировочных нагрузок и средств восстановления [6,8,9].

При формировании модели подготовки использовались данные систем мониторинга функционального состояния и уровня тренированности спортсменов, что обеспечило индивидуализацию тренировочных воздействий и оперативную коррекцию учебно-тренировочных программ. Экспериментальная проверка эффективности разработанной модели подтвердила её положительное влияние на показатели функциональной готовности и уровень спортивного мастерства паратриатлонистов [3,5,7].

В ходе исследования было разработано программно-методическое обеспечение, учитывающее особенности подготовки триатлонистов и предусматривающее адаптацию учебной программы в соответствии с действующими типовыми учебными планами спортивных школ. Отличительной особенностью предложенного подхода является иное распределение объёма тренировочного времени, направленного на совершенствование различных сторон подготовки и участие в соревновательной деятельности (табл. 1). Формирование рекомендаций

осуществлялось с опорой на передовой тренерский опыт и современные научно-методические положения.

При формировании оптимизированной структуры и содержания программно-методического обеспечения были учтены дифференцированные разделы подготовки, отражающие специфику развития и целенаправленной оптимизации физических качеств, последовательность формирования и совершенствования двигательных умений и навыков, а также морфофункциональные особенности паратриатлонистов.

**Таблица 1**

**Структурно-содержательная оптимизация программно-методического обеспечения подготовки паратриатлонистов в годичном тренировочном цикле этапа совершенствования спортивного мастерства**

№	Разделы подготовки	Месяцы												Всего часов
		XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	
1	ОФП	52	38	24	12	4	4	4	4	8	4	4	4	162
2	СФП	38	51	64	74	74	80	75	65	65	65	65	28	744
3	ТТП	40	30	34	30	28	26	24	22	22	22	22	22	322
4	Теоретическая подготовка	2	3	2	3	2	2	2	2	2	2	2	2	26
5	Психическая подготовка	2	2	2	2	3	2	3	2	2	2	2	2	26
6	Участие в соревнованиях					+	+	+	+		+	+	+	
7	Тренерская и судейская практика	2	1	2	2	2	2	1	2	2	2	2	2	22

8	Восстановительные мероприятия	3	3	3	3	3	3	4	3	3	3	3	4	38
9	Контрольные нормативы	6											6	12
10	Медицинский осмотр		+					+						
	Недельная нагрузка													26
	Всего нагрузки	145	128	131	126	116	119	11 3	100	104	100	100	70	135 2

Разработанные предложения по оптимизации учебно-тренировочной программы направлены на обеспечение системности, преемственности и непрерывности подготовки паратриатлонистов с учётом специфики ограничений здоровья и индивидуальных адаптационных возможностей спортсменов. Реализация предложенного подхода создаёт условия для последовательного и методически обоснованного перехода между целями, задачами, методами и средствами тренировочного воздействия на этапах многолетней подготовки, в том числе на юниорском этапе.

В структуре подготовки предусматривается поэтапное увеличение общего объёма тренировочных нагрузок как в рамках общей, так и специальной физической подготовки, при этом их соотношение носит динамический характер: по мере

роста спортивного мастерства и функциональной адаптации возрастает удельный вес специальной физической подготовки, тогда как доля общей физической подготовки закономерно снижается. Одновременно сохраняется целенаправленная работа по совершенствованию технической и тактической подготовленности паратриатлонистов с постепенным повышением интенсивности и объёма тренировочных воздействий до индивидуально допустимых предельных значений.

Особое внимание в системе подготовки уделяется формированию психологической устойчивости и стрессоустойчивости паратриатлонистов, что рассматривается как необходимое условие успешной адаптации к высоким тренировочным и соревновательным нагрузкам в условиях паратриатлона (рис. 1).



**Рис.1. Рекомендации по оптимизации соотношения разделов подготовки в образовательной программе по паратриатлону на этапе ССМ 2-года обучения**

В ходе исследования была разработана структура системы оптимизации подготовки паратриатлонистов, которая включает четыре взаимосвязанных структурных блока:

1. Диагностико-мониторинговый блок. Данный блок обеспечивает объективную оценку состояния спортсмена и включает:

- мониторинг функционального состояния (кардиореспираторные показатели, уровень утомления, восстановление);
- контроль физической работоспособности и специальной выносливости;
- оценку психофизиологического состояния и стрессоустойчивости;

- медицинский контроль и анализ динамики состояния здоровья.

Данные мониторинга рассматриваются как основной источник управленческой информации, позволяющий своевременно выявлять признаки перенапряжения, дезадаптации или неэффективности тренировочных воздействий.

2. Планировочно-методический блок. Данный блок направлен на построение структуры подготовки и включает:

- моделирование многолетней подготовки с выделением этапов (начальной специализации, спортивного совершенствования, высшего спортивного мастерства);

- оптимизацию годовых и многолетних макроциклов на основе блоковой периодизации;

- дифференцированное распределение тренировочных нагрузок (ОФП, СФП, техническая, тактическая и психологическая подготовка);

- адаптацию тренировочных программ с учетом функционального класса паратриатлонистов.

3. Управляюще-коррекционный блок. Управление учебно-тренировочным процессом осуществляется на основе принципа обратной связи, реализуемого через:

- сопоставление планируемых и фактических показателей подготовки;

- оперативную и этапную коррекцию объема, интенсивности и направленности нагрузок;

- изменение структуры мезо- и микроциклов в зависимости от данных мониторинга;

- индивидуализацию восстановительных мероприятий.

Таким образом, управление подготовкой приобретает адаптивный характер, что особенно важно в условиях параспорта.


4. Оценочно-результативный блок. Заключительный блок системы обеспечивает:

- анализ динамики спортивных результатов;

- оценку устойчивости функционального состояния в соревновательном периоде;

- определение эффективности реализуемых тренировочных программ;

- формирование прогностических моделей дальнейшего спортивного развития паратриатлонистов (рис.2).



**Рис.1. Система оптимизации подготовки паратриатлонистов, которая включает четыре взаимосвязанных структурных блока**

**Выводы.** Разработанная система оптимизации учебно-тренировочного процесса паратриатлонистов на основе комплексного мониторинга и управления подготовкой представляет собой научно обоснованную концепцию, обеспечивающую повышение эффективности подготовки спортсменов с

ограниченными возможностями здоровья. Реализация данной системы позволяет перейти от традиционных, слабо управляемых моделей подготовки к адаптивной, индивидуализированной и научно контролируемой системе спортивного совершенствования в паратриатлоне

#### Список литературы:

1. Антипина, Ю.В. Совершенствование подготовительного мезоцикла тренировок по триатлону / Ю.В. Антипина // Научная сессия ГУАП: сборник докладов: в 3-х частях. Санкт-Петербургский государственный университет аэрокосмического приборостроения. - 2017. - С. 188-190.
2. Данилова И.К. Комплексная подготовка триатлонистов на олимпийской дистанции / И.К. Данилова // Педагогические проблемы в образовании: теория и практика: материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. - 2020. - С. 12-15.
3. Коробов А.Н. Целевая комплексная программа подготовки российских триспортсменов к Играм XXIX Олимпиады 2008 года в Пекине (Китай) / А.Н. Коробов, А.А. Логинов. – Пенза 2005. - 40 с.
4. Niyazova R.R. Application of the hardware and software complex functional preparedness of triathletes. Euroasian Journal of sport Science (EAJSS). Vol 1 No 2, 2023 ISSN:2181-127. - P.17-20. [13.00.00 №01-10/1103].
5. Ниязова Р.Р. Оценка уровня функциональной подготовленности триатлонистов на этапе совершенствования спортивного мастерства // ISSN: 2181-7804 "FAN – SPORTGA" ilmiy-nazariy jurnali. Chirchiq.: 2022/5.
6. - В. 38-41. [13.00.00 №16].
7. Сушков Д.Ю. Периодизация спортивной подготовки в годичном цикле на примере сборной команды Омской области по триатлону / Д.Ю. Сушков, А.П. Стромов // Сибирский ун-т физ. культуры и спорта. Научные труды: ежегодник. – Омск 2003. - С. 111-114.
8. Суслов Ф.П. О структуре (периодизации) годичного цикла подготовки и спортивной формы в современном спорте / Ф.П. Суслов // Наука в олимпийском спорте. – 2011. – № 1-2. – С. 41- 45.
9. Тихов В.В. Особенности макроструктуры многолетнего процесса подготовки высококвалифицированных спортсменов, специализирующихся в триатлоне на олимпийской дистанции / В.В. Тихов // Ученые записки университета им. П. Ф. Лесгафта. - 2017. - № 11 (153). - С. 248-255.

UDK: 339:657.6

**S.I.Xujamuradova.***Alfraganus university**dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***EKSPORT FAOLIYATI AUDITINING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI****Аннотация (Abstract)**

Eksport-import operatsiyalari korxonalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda eksport operatsiyalari auditi, metodologiyasi va bosqichlari tahlil qilinadi. Maqolada eksport operatsiyalari auditi uchun maxsus yondashuv, ichki nazorat tizimi, hujjatlar va moliyaviy hisobning to'g'ri yuritilishi masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport operatsiyalari auditi, ichki nazorat, moliyaviy hisob, tashqi iqtisodiy faoliyat, risklarni baholash

**ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АУДИТА ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Аннотация:** Экспортно-импортные операции оказывают значительное влияние на финансовую устойчивость и эффективность деятельности предприятий. В данной статье анализируются аудит экспортных операций, методология и этапы его проведения в Узбекистане. Рассматриваются вопросы применения специальных подходов к аудиту, внутренней системы контроля, документооборота и правильного ведения финансового учета.

**Ключевые слова:** аудит экспортных операций, внутренний контроль, финансовый учет, внешнеэкономическая деятельность, оценка рисков.

**ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF EXPORT ACTIVITY AUDIT**

**Abstract:** Export-import operations have a significant impact on the financial stability and efficiency of enterprises. This article analyzes the audit of export operations, its methodology, and implementation stages in Uzbekistan. The study covers issues related to the use of specialized audit approaches, internal control systems, documentation, and accurate financial accounting.

**Keywords:** audit of export operations, internal control, financial accounting, foreign economic activity, risk assessment

**Kirish.**

Eksport-import operatsiyalari korxonalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday operatsiyalar

buxgalteriya hisobi, valyuta va bojxona qonunchiligi hamda xalqaro standartlar bilan bog'liqligi sababli auditorlar uchun alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda eksport hajmi sezilarli darajada oshdi: 2025 yilda tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollarni tashkil etib, eksport ko'rsatkichi 24 % ga o'sib, 33,8 milliard dollarga yetdi. Bu tendensiya auditorlar uchun yangi xatarlar va huquqiy talablarni yuzaga keltiradi, shu sababli eksport operatsiyalari auditida dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ammo amalda aksariyat auditorlik tajribalari eksport faoliyati bilan shug'ullanmaydigan korxonalariga taalluqli bo'lib, eksport operatsiyalarining o'zgacha xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois, auditning maqsadi nafaqat qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlash, balki buxgalteriya hisobining ishonchliligi va ichki nazorat samaradorligini baholashdan iboratdir.

Eksport-import operatsiyalari bo'yicha muhim auditorlik tajribasi to'plangan bo'lsa-da, ushbu tajriba ko'pincha eksport faoliyati bilan shug'ullanmaydigan korxonalariga taalluqlidir [2]. Shu bilan birga, eksport operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari ularni tekshirish bo'yicha maxsus audit metodologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Amaldagi buxgalteriya hisobi tizimi eksport operatsiyalarining barcha jihatlarini bir xil va to'liq aks ettirish imkonini bermasligi sababli, audit jarayonida ham nazariy, ham amaliy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mazkur holatlar eksport operatsiyalari auditini takomillashtirish

masalasining dolzarbligini belgilab beradi.

### **Metodologiya.**

Ushbu tadqiqot eksport operatsiyalarini auditorlik tekshiruvining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda eksport operatsiyalarini tekshirishda umumilmiy metodlar bilan bir qatorda auditorlik dalillarini yig'ish va ichki nazorat tizimini baholashga asoslangan maxsus audit metodlari qo'llanildi. Jumladan, eksport operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi hamda ularning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligi tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqot bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, xususan Dobre C., o'z ilmiy izlanishlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni tekshirishning faqat alohida tartiblarini ko'rib chiqsalar, Остраев Г.Я. esa umuman tashqi iqtisodiy faoliyat ustidan nazoratni tadqiq qiladilar. Shuningdek, boshqa xorijlik olimlar, Suits V.P. va Voloshin D.A., o'z navbatida, har doim ham tashqi iqtisodiy faoliyatga taalluqli bo'lmagan valyuta nazoratini batafsilroq o'rganadilar.

Shu bilan birga, eksport operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan valyuta tushumlarining o'z vaqtida kelib tushishi, bojxona rasmiylashtiruvi hamda Incoterms shartlariga rioya etilishi audit metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

«Eksport operatsiyalarini tekshirish auditorlik tashkiloti faoliyatining alohida sohasidir. Shu

bilan birga, auditorlar nafaqat buxgalteriya tashkilotlariga, balki buxgalteriya hisobiga oid hujjatlarga rahbarlik qiladilar. Auditning ushbu bo'limida valyutani tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha normativ hujjatlar, banklarning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish, bojxona qonunchiligining ayrim jihatlarini bilish ko'zda tutilgan» [3].

Amaldagi buxgalteriya tizimi ko'plab eksport operatsiyalarini bir xil tarzda aks ettirishga imkon bermaydi. Natijada, audit uslubiya-tini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham umumiy, ham uning alohida elementlarini o'rganish bo'yicha qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini anglatadi.

Bunday holda, «eksport operatsiyalari auditining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi: buxgalteriya hisobining ishonchliligi va uning oqilona tashkil etilganligi; eksport operatsiyalari sohasidagi samaradorlik, ularni amalga oshirish tartibining O'zbekiston qonunchiligiga va xalqaro standartlarga muvofiqligi; korxonada ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligini baholash» [4].

Ushbu maqsadga erishish uchun auditor quyidagi vazifani amalga oshiradi:

eksport operatsiyalarini tekshirishning aniq yo'nalishlarini, shu jumladan moliyaviy ma'lumotlarni

buzish xavfi yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash va hisobot tayyorlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ekti uchun bojxona, valyuta qonunchiligi va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik va h.k.

### **Natijalar.**

Eksport operatsiyalari bo'yicha auditorlar xulosasi quyidagi shartlarga muvofiq shakllantiriladi:

- tuzilgan eksport bitimlarining shakli ularning mazmuniga mos kelishi kerak;

- shartnomalar shartlari xalqaro huquq normalariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga va Fuqarolik Kodeksiga muvofiq bo'lishi kerak;

- eksport operatsiyalari amalda O'zbekistonning bojxona va valyuta qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Eksport operatsiyalari auditining asosiy yo'nalishi qonun hujjatlariga muvofiq normativ hujjatlar va buxgalteriya hisobi tartibiga rioya etilishini tekshirishdan iborat.

«Eksport operatsiyalarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari buxgalteriya hisobi va iqtisodiy jarayonning yo'nalishlarini, bunda buzilishlar, xatolar va suiste'molni oldindan belgilaydi:

- tovarga egalik huquqi sotuvchidan xaridorga o'tgan sanani buzib ko'rsatish;

- tovarlarni eksport qilishda kiruvchi valyuta tushumlarining buxgalteriya hisobida o'z vaqtida aks ettirilishi;

- eksport operatsiyalarini asossiz hisobdan chiqarish;

- eksport tovarlari tannarxi noto'g'ri hisoblash» [5].

Masalan, auditorlik tekshiruv jarayonida eksport shartnomasi asosida mahsulot jo'natilgan bo'lsa-da, valyuta tushumi belgilangan muddatda korxonada hisob raqamiga kelib tushmagan holatlar aniqlanishi mumkin. Bu esa valyuta qonunchiligi buzilishiga hamda korxonada moliyaviy risklarining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, amaliyotda eksport mahsulotlari tannarxini shakllantirishda transport xarajatlari, bojxona rasmiylashtiruv to'lovlari yoki sug'urta xarajatlari mahsulot tannarxiga qo'shilmagan holatlar uchrashi mumkin. Natijada, eksport mahsulotlari tannarxi noto'g'ri hisoblanib, moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) hisobotda asossiz ravishda buzib ko'rsatiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bo'lgan kichik va o'rta tashkilotlar, bir martalik tashqi savdo shartnomalari bo'lgan tashkilotlar faoliyatidagi asosiy kamchilik tuzilgan shartnomalar bo'yicha buxgalteriya ekspertizasining yo'qligi hisoblanadi. Buxgalterlar tashqi savdo shartnomalarining moddalarini, shu jumladan to'lov shakllari, jarimalar va boshqalar kabi muhim moddalarni muvofiqlashtirish jarayonidan deyarli chetlashtiriladi. Natijada, buxgalteriya bo'limi buxgalteriya hisobi va hisobotini

buzadigan kamchiliklar bilan shartnomalar qabul qilinadi.

Shuning uchun auditor shartnomalarning to'g'ridan-to'g'ri buxgalteriya hisobi bilan bog'liq bo'lgan bo'limlariga (moddalariga) ko'proq e'tibor berishi kerak:

- eksport shartnomasining predmeti;

- tovarning miqdor va sifat jihatidan qabul qilish tartibi;

- narx va to'lov tartibi;

- valyuta bandi;

- eksport operatsiyalarini hisobga olish (eksport qilinadigan tovarga egalik huquqini xaridorga o'tkazish tartibi, to'lov shakli, ishtirok etish yoki qatnashmaslik vositachi tashkilotlar eksporti).

Bundan tashqari, auditor eksport operatsiyalarining analitik hisobini tashkil etishga, tashkilotda buxgalteriya hisobi va nazoratini ta'minlaydigan alohida xizmatlar yoki mutaxassislarining mavjudligiga alohida e'tibor berishi kerak.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, ushbu faoliyatning moliyaviy holatga ta'sir darajasini aniqlash shartnomalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tashkil etish va to'g'ri baholashga bog'liq.

### **Muhokama.**

Eksport operatsiyalari auditi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi (1.1-rasm).

1) ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishni baholash

2) eksport operatsiyalari auditini rejalashtirish

3) eksport operatsiyalari auditioning uslubi yondashuvlari:  
- operatsiyalar xujjatlarini tekshirish; - eksport operatsiyalarining analitik hisobini tekshirish; - eksport operatsiyalarining sintetik hisobini tashkil etishni tekshirish; - tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalarining normativ xujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish.

4) eksport operatsiyalari auditining yakuniy qismi

### 1.1-rasm. Eksport operatsiyalari audit bosqichlari<sup>1</sup>

1-bosqichda audit jarayoni korxonadagi ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobining eksport operatsiyalarini aks ettirish darajasini baholashdan boshlanadi. Auditor hisob siyosati, hujjatlar aylanishi, vakolatlarining taqsimlanishi va nazorat mexanizmini o'rganadi.

2-bosqichda auditor audit ish hajmini belgilaydi, asosiy xatarli yo'nalishlarni aniqlaydi, audit dasturini tuzadi, zarur auditorlik dalillarini yig'ish usullarini belgilaydi.

3-bosqich eksport operatsiyalariga oid birlamchi hujjatlarni tekshirish, analitik hisobning to'g'ri yuritilganligini baholash, sintetik hisob va moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, yetkazib berish shartlari (Incoterms 2020) talablariga rioya etilganligini tekshirish kabi amallarni o'z ichiga oladi.

4-bosqichda audit yondashuvi eksport operatsiyalarining qonuniyligi,

hisobdagi aniqlik va moliyaviy hisobotlardagi ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u korxonaga uchun tashqi iqtisodiy faoliyatga bog'liq moliyaviy va huquqiy risklarni oldindan aniqlash va kamaytirish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek moliyaviy intizomni mustahkamlash imkonini beradi. Statistik ma'lumotlar va ilgari aniqlangan xatoliklar tahliliga asoslanib, auditor bu yondashuv orqali korxonaga faoliyatining barqarorligini oshiradi va xalqaro standartlarga muvofiq hisob-kitoblarni ta'minlaydi.

#### Xulosa.

Eksport-import operatsiyalari korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni tekshirishda auditning kompleks va tizimli yondashuvi talab etiladi.

Auditorning asosiy vazifasi buxgalteriya hisobining ishonchliligini ta'minlash, eksport operatsiyalarining qonuniyligi va xalqaro standartlarga

<sup>1</sup>Muallif ishlanmasi

muvofiqligini baholash, shuningdek ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlashdan iboratdir.

Taklif etilayotgan bosqichli audit yondashuvi eksport operatsiyalarining qonuniyligi, hisobda to'g'ri aks ettirilishi va moliyaviy hisobotlarda ishonchli ko'rsatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yondashuv korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq risklarni kamaytirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish va

moliyaviy intizomni mustahkamlash imkonini beradi.

Kelgusida eksport operatsiyalari auditini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat vositalarini joriy etish va riskga asoslangan audit modellarini tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham eksport auditi metodologiyasini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. UZA. Uzbekistan's foreign trade turnover exceeded \$81 billion in 2025. [https://uza.uz/en/posts/uzbekistans-foreign-trade-turnover-exceeded-81-billion-in-2025\\_809845](https://uza.uz/en/posts/uzbekistans-foreign-trade-turnover-exceeded-81-billion-in-2025_809845).
2. Dobre C. Great Britain and Germany Supreme Audit Institutions. The Annals of the University of Oradea: Economic Sciences, 2012, vol. 21, iss. 1, pp. 695–701.
3. Остаев Г.Я. Методика аудита экспортных и импортных операций // Научное обеспечение АПК. Итоги и перспективы 16–18 октября 2013 г. / Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 70-летию ФГБОУ ВПО Ижевская ГСХА. Т. 2. Ижевск, ФГБОУ ВПО Ижевская ГСХА. С. 257–261.
4. Остаев Г.Я. Методические особенности аудита отдельных экспортных операций. Международный бухгалтерский учет. 42. 2015. -С. 27–49.
5. Suits V.P., Voloshin D.A. Audit effektivnosti biznes-protsessov kak instrument kontrolya [Auditing the efficiency of business processes as a controlling tool]. Problemy teorii i praktiki upravleniya = Theoretical and Practical Aspects of Management, 2014, no. 6, pp. 100–107.
6. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: II қисм, 2-жилд, Тошкент, 2014. – Б.1011.
7. R.D.Dusmurotov. Auditning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma, ToshDAU nashr-tahririyot bo'limi, Toshkent – 2018, 142 b.
8. С.И.Хужамурадова. Экспорт-импорт операциялари аудитининг услубий жиҳатларини такомиллаштириш. 08.00.08 – «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит» ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент – 2025.

**Inagamova Feruza Xurshitovna**

*TMC Tashkent Instituti*

*Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti*

*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*inagamovaferuza4@gmail.com*

## **YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-MADANIY VA FALSAFIY JIHALARI**

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda kechayotgan qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni ijtimoiy-madaniy va falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot hamda ijtimoiy modernizatsiya sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning kuchayishi asoslab beriladi. Tadqiqotda falsafiy-aksiologik tahlil va sotsiologik yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy ong, madaniy muhit va shaxsiy identifikatsiyaga ko'rsatadigan ta'siri ochib beriladi. Maqolada Yangi O'zbekistonda inson qadri, ilm, innovatsiya va ijtimoiy adolat kabi qadriyatlarning markaziy ahamiyat kasb etayotgani ilmiy asoslanadi. Olingan natijalar qadriyatlar transformatsiyasini ijtimoiy-tarixiy zaruriyat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

**Kalt so'zlar.** Qadriyatlar transformatsiyasi, aksiologiya, globallashuv, ijtimoiy ong, madaniy muhit, Yangi O'zbekiston, falsafiy tahlil, ma'naviy jarayonlar

### **Аннотация.**

В данной статье анализируется процесс трансформации ценностей, происходящий в Новом Узбекистане, с социально-культурной и философской точек зрения. Обосновывается усиление диалектической взаимосвязи между национальными и общечеловеческими ценностями в условиях глобализации, технологического прогресса и социальной модернизации. В исследовании использованы методы философско-aksiологического анализа и социологического подхода. Раскрывается влияние изменений в системе ценностей на общественное сознание, культурную среду и личностную идентификацию. В статье научно обосновывается, что в Новом Узбекистане центральное значение приобретают такие ценности, как человеческое достоинство, знания, инновации и социальная справедливость. Полученные результаты позволяют интерпретировать трансформацию ценностей как социально-историческую необходимость.

**Ключевые слова.** Трансформация ценностей, аксиология, глобализация, общественное сознание, культурная среда, Новый Узбекистан, философский анализ, духовные процессы

**Abstract.**

This article analyzes the process of value transformation in New Uzbekistan from socio-cultural and philosophical perspectives. It substantiates the strengthening of the dialectical relationship between national and universal values in the context of globalization, technological progress, and social modernization. The research employs philosophical-axiological analysis and sociological approach methods. The impact of changes in the value system on social consciousness, cultural environment, and personal identity is revealed. The article scientifically establishes the central importance of values such as human dignity, knowledge, innovation, and social justice in New Uzbekistan. The obtained results allow for the interpretation of value transformation as a socio-historical necessity.

**Keywords:** Value transformation, axiology, globalization, social consciousness, cultural environment, New Uzbekistan, philosophical analysis, spiritual processes

**KIRISH.** Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi hamda ijtimoiy hayotning raqamlashtirishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi bilan bir qatorda, uning ma'naviy-aksiologik asoslariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada qadriyatlar tizimi an'anaviy shaklda saqlanib qolmay, balki yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashgan holda qayta shakllanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy jamiyatlarda qadriyatlarning transformatsiyasi ijtimoiy evolyutsiyaning muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarni,

balki jamiyatning ma'naviy-aksiologik asoslarini ham qamrab olmoqda. Inson qadri, erkinlik, adolat, ilmparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalarning ustuvor ahamiyat kasb etishi qadriyatlar tizimida sifat jihatdan yangi bosqich shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon an'anaviy milliy qadriyatlarining inkori emas, balki ularning zamon talablari bilan uyg'unlashuvi asosida yangicha mazmun kasb etishini anglatadi. Shu bois qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur jarayonning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar bevosita ijtimoiy ong, madaniy muhit va shaxsiy identifikatsiya bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi

munosabatlar murakkablashib, ularning o'zaro ta'siri yangi mazmun kasb etmoqda. Bu holat qadriyatlar transformatsiyasini faqat ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki chuqur falsafiy jarayon sifatida ham tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Yangi O'zbekistonda sodir bo'layotgan qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-madaniy va falsafiy mohiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarning sabab va omillari, ularning ijtimoiy ong hamda madaniy muhitga ta'siri falsafiy-aksiologik yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik aloqaning kuchayishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda qadriyatlar transformatsiyasi muammosi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinmoqda. Aksiologiya doirasida qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi va ularning dinamik xususiyati alohida ta'kidlanadi [1].

Ilmiy adabiyotlarda globallashuvning qadriyatlar tizimiga ta'siri masalasida turli yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu jarayonni milliy qadriyatlarning yemirilishiga olib keluvchi omil sifatida baholagan bo'lsalar [2], boshqa mualliflar

globallashuvni qadriyatlarning yangi ijtimoiy sharoitga moslashuvi va qayta talqin qilinishiga imkon beruvchi hodisa sifatida izohlaydilar [3]. Bu holat qadriyatlar transformatsiyasining murakkab va dialektik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek jamiyatida qadriyatlar transformatsiyasi masalasi mahalliy olimlar tomonidan ham keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida mustaqillikdan keyingi davrda qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi [4]. Ayniqsa, inson qadri, ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi va ma'naviy mas'uliyat masalalarining markaziy o'ringa chiqishi Yangi O'zbekistondagi ma'naviy jarayonlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, inson qadri va ijtimoiy adolat masalalarining markaziy o'ringa chiqishi Yangi O'zbekistondagi ma'naviy jarayonlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda qadriyatlar transformatsiyasi ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog'liq holda ham o'rganiladi. J. Habermasning diskursiv demokratiya konsepsiyasi doirasida qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy kelishuv va normativ barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi [5]. Bu yondashuv qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy muvozanatni saqlashdagi rolini anglashga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-madaniy va falsafiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida falsafiy-aksiologik tahlil asosiy metod sifatida tanlanib, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining obyektiv jarayoni sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv qadriyatlarning mohiyati, ularning ijtimoiy ong va madaniy muhitdagi o'rnini ochib berish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari uyg'unlashtirildi. Qadriyatlar transformatsiyasi muayyan tarixiy sharoit va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda tahlil qilinib, Yangi O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlar kontekstida o'rganildi. Bu esa qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni statik hodisa emas, balki uzluksiz va dinamik jarayon sifatida asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida umumilmiy metodlardan – tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraksiyalash usullaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik, ularning o'zaro ta'siri hamda ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish shakllari aniqlashtirildi. Ayniqsa, an'anaviylik va tadrijiylik tamoyillari asosida qadriyatlar tizimining yangilanish mexanizmlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda empirik materiallardan ham foydalanildi. Xususan, sotsiologik so'rov natijalari qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy idrokda aksini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi. So'rov ma'lumotlari jamiyatda globallashtirish, gender tengligi, ta'lim va axborot makoni bilan bog'liq qadriyatlarga bo'lgan munosabatni aniqlash imkonini berdi. Ushbu empirik ma'lumotlar falsafiy tahlil natijalarini dalillash va umumlashtirishda qo'llanildi.

Metodologik yondashuvning muhim jihatlardan biri sifatida tizimli yondashuv tanlandi. Ushbu yondashuv qadriyatlar tizimini ijtimoiy hayotning boshqa sohalari — siyosat, huquq, madaniyat va ta'lim bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilishga imkon berdi. Natijada qadriyatlar transformatsiyasi alohida hodisa emas, balki jamiyat modernizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida asoslandi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya tadqiqot maqsad va vazifalariga mos bo'lib, Yangi O'zbekistonda kechayotgan qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-madaniy va falsafiy jihatlari ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni ijtimoiy hayotning turli jabhalarida namoyon bo'layotgan chuqur va ko'p qatlamli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon, avvalo, jamiyatda inson qadrining ustuvor aksiologik mezon sifatida shakllanib borishi bilan bog'liq

holda namoyon bo'lmoqda. Siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlarning markazida inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta'minlash g'oyasining ilgari surilishi qadriyatlar tizimidagi sifatli siljishlardan dalolat beradi [5]. Mazkur holat jamiyat rivojining markaziga shaxs omilining qo'yilayotgani va ijtimoiy taraqqiyotning insonparvarlik tamoyillari asosida yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sezilarli darajada kuchaymoqda. Ushbu jarayon ayrim hollarda qadriyatlar qayta baholanishiga, ularning ijtimoiy nufuzi va ahamiyatining o'zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, ilm, innovatsiya, erkin fikrlash va axborotga ochiqlik kabi qadriyatlar jamiyat ongida tobora muhim o'rin egallashi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va aksiologik tadqiqotlarda ham alohida ta'kidlanadi [6]. Shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlar – oila, hurmat, mehr-oqibat va ma'naviy mas'uliyat kabi tushunchalar o'z ahamiyatini yo'qotmay, balki zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashgan holda yangi mazmun kasb etmoqda. Bu holat qadriyatlar tizimining moslashuvchan va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muhim natijalardan biri shundaki, qadriyatlar transformatsiyasi keskin va inqilobiy xarakterga ega emas, balki evolyutsion va tadrjiiy jarayon sifatida amalga oshmoqda. Yangi qadriyatlar

tizimi eski qadriyatlarni to'liq inkor etish orqali emas, balki ularning jamiyat barqarorligi va ijtimoiy vorisiylikni ta'minlovchi muhim jihatlarni saqlab qolgan holda yangilanmoqda. Mazkur yondashuv jamiyat taraqqiyotining barqarorlik, davomiylik va vorisiylik tamoyillari bilan metodologik jihatdan uyg'un keladi [7]. Natijada ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazmagan holda amalga oshmoqda.

Shuningdek, tahlil natijalari yoshlar va yosh oilalar hayotida qadriyatlar transformatsiyasining yanada faol va tezkor namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bilim va kasbiy malakaga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib, ilmparvarlik va innovatsion fikrlashni jamiyatdagi asosiy qadriyatlar qatoriga olib chiqmoqda. Bu holat jamiyatning intellektual salohiyati oshishiga, shuningdek, ijtimoiy moslashuvchanlik va raqobatbardoshlikning kuchayishiga xizmat qilmoqda [5]. Ayniqsa, yosh avlod ongida kelajakni rejalashtirish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faollikka intilish kuchayib borayotgani kuzatilmoqda.

Gender tengligi bilan bog'liq qadriyatlar ham ijtimoiy ongda turlicha talqin qilinayotgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya sifatida teng huquq va imkoniyatlarni tan olishga tomon barqaror siljish kuzatilmoqda. Ushbu holat qadriyatlar transformatsiyasining murakkab va ziddiyatli jihatlardan biri bo'lib,

jamiyatda davom etayotgan ijtimoiy munozaralar orqali o'zining muvozanatli va ijtimoiy maqbul shaklini topib bormoqda [8]. Bu jarayon ijtimoiy ongning demokratiklashuvi va ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat modernizatsiyasi jarayonlarining ajralmas va tizimli qismi ekanligini ko'rsatadi. Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar ijtimoiy ong, madaniy muhit va shaxsiy identifikatsiyaga bevosita ta'sir ko'rsatib, jamiyatning ochiq, moslashuvchan va dinamik rivojlanishiga mustahkam falsafiy asos yaratmoqda. Shu ma'noda, qadriyatlar transformatsiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim sotsiomadaniy omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda kechayotgan qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining obyektiv va qonuniy jarayoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon globallashtiruvchi, texnologik taraqqiyot hamda keng ko'lamlil ijtimoiy islohotlar ta'sirida qadriyatlar tizimining yangilanishiga olib kelib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik uyg'unlikni kuchaytirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar transformatsiyasi keskin uzilishlar emas, balki tadaruj va evolyutsion o'zgarishlar orqali amalga oshmoqda.

Maqolada olib borilgan tahlillar Yangi O'zbekistonda inson qadriyatining markaziy qadriyat sifatida shakllanib borayotganini tasdiqlaydi. Inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar qadriyatlar tizimida yangi aksiologik ustuvorliklarni yuzaga chiqarmoqda. Bu holat ijtimoiy ong, madaniy muhit va shaxsiy identifikatsiyada sifat jihatdan yangi yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda [9].

Shuningdek, qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida ilm, innovatsiya, erkin fikrlash va ijtimoiy faollik kabi qadriyatlar ahamiyati ortib borayotgani aniqlanadi. Mazkur tendensiya, ayniqsa, yoshlar va yosh oilalar hayotida yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlarning modernizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlar – oila, hurmat, mehr-oqibat va ma'naviy mas'uliyat zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashgan holda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Gender tengligi, axborot makonining kengayishi hamda madaniy xilma-xillik bilan bog'liq qadriyatlar transformatsiyasi murakkab va ziddiyatli jarayon ekanligi ham tadqiqot natijalarida o'z ifodasini topdi. Ushbu jarayonlar jamiyatda bahs-munozaralarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy yo'nalishi ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi. Bu esa qadriyatlar tizimining yanada ochiq va

moslashuvchan tus olishiga xizmat qilmoqda [10].

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi **ilmiy-amaliy takliflarni** ilgari surish mumkin:

**birinchidan**, qadriyatlar transformatsiyasini baholashda uni salbiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy bosqichi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq;

**ikkinchidan**, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy siyosatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ta'minlashga qaratilgan falsafiy-aksiologik yondashuvlarni kuchaytirish lozim;

**uchinchidan**, yoshlar va oilalar bilan bog'liq ijtimoiy dasturlarda

qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-madaniy jihatlarini inobatga olish jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimi ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning markazida inson va uning intellektual hamda ma'naviy salohiyati turibdi. Ushbu holat kelgusida qadriyatlar transformatsiyasini yanada chuqurroq falsafiy tadqiq etish, uning ijtimoiy oqibatlarini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yuzaga chiqaradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtayev X. **Qadriyatlar falsafasi va jamiyat taraqqiyoti**. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Giddens E. **The Consequences of Modernity**. – Cambridge: Polity Press, 1990.
3. Beck U. **Risk Society: Towards a New Modernity**. – London: Sage Publications, 1992.
4. Ismoilov B.S. **O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar transformatsiyasi**. – Toshkent, 2019.
5. Habermas J. *Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy*. — Cambridge: MIT Press, 1996.
6. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
7. Inglehart R., Welzel C. *Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
8. Giddens E. *The Consequences of Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 1990.
9. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
10. Inglehart R. *Cultural Evolution: People's Motivations Are Changing, and Reshaping the World*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018.

**Xayitov Zokir Turaboyevich***Alfraganus university**“Matematika va fizika” kafedrası katta o‘qituvchisi*

z.xayitov@afu.uz

ORCID: 000-0002-6601-7249

## KONUSSIMON BARABANLI GIDROTURBINA KONSTRUKSIYASINI TANLASH VA ASOSLASH

**Annotatsiya:** Konussimon barabanli turbinaning asosiy afzalligi – suv oqimini pararak uchlariga majburiy ravishda yo‘naltirish va hajmiy yo‘qotishlarni minimallashtirish imkoniyatiga egaligi. Suv oqimi barabanning uchiga tomon konussimon shaklda siqiladi va bu orqali foydalanishdagi oqim to‘liq barqaror va yo‘naltirilgan kuch shaklida barabanning burovchi harakatni yuzaga keltiradi.

Gidroturbina – bu suvning mexanik energiyasini turbina valining aylanish harakatiga aylantiradigan uskuna bo‘lib, suv energiyasidan foydalanish samaradorligini belgilaydigan bir nechta muhim omillar mavjud:

- suv oqimi tezligi va bosimi,
- suv oqimining baraban va parraklar bilan o‘zaro tasiri,
- konstruksiyadagi yo‘qotishlarning kamligi,
- mexanikaviy uzatuvchi qismlarning optimal ishlashi.
- Barabandagi suv bosimini qabul qiluvchi chuqurchalar soni.

**Kalit so‘zlar:** Hidroturbina, konussimon baraban, buralish momenti, burovchi kuch, oqim, bosim.

## ВЫБОР И ОБОСНОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ КОНИЧЕСКОЙ БАРАБАННОЙ ГИДРОТУРБИНЫ

**Аннотация:** Основным преимуществом турбины с коническим барабаном является возможность принудительно направлять поток воды на сопла пара и минимизировать потери объема. Поток воды сжимается по направлению к кончику барабана в конической форме, и поток, проходящий через него, вызывает вращательное движение барабана в виде полностью устойчивой и направленной силы. Гидротурбина-это устройство, которое преобразует механическую энергию воды во вращательное движение вала турбины, и есть несколько важных факторов, которые определяют эффективность использования энергии воды:

\* скорость и давление потока воды,

- \* взаимодействие потока воды с барабаном и поплавками,
- \* меньшие конструктивные потери,
- \* оптимальные характеристики деталей механической коробки передач.
- \* Количество сот, принимающих давление воды в барабане.

**Ключевые слова:** гидротурбина, конический барабан, крутящий момент, сила кручения, поток, давление.

## SELECTION AND JUSTIFICATION OF THE CONSTRUCTION OF A HYDROTURBINE WITH A CONICAL DRUM

**Annotation:** The main advantage of a turbine with a conical drum is the ability to forcibly direct the flow of water to the parakeet ends and minimize volumetric losses. The flow of water is compressed in a conical shape towards the end of the drum, and through this, the current in use is completely stable and in the form of a directed Force, creating the torsion movement of the drum. A hydroturbine is a device that converts the mechanical energy of water into the rotational movement of a turbine shaft, and there are several important factors that determine the efficiency of using water energy:

- water flow rate and pressure,
- \* interaction of water flow with drums and parracks,
- low loss in construction,
- \* optimal performance of mechanical switch parts.
- The number of recesses that accept the water pressure in the drum.

**Keywords:** Hydroturbine, conical drum, torsion moment, torsion force, current, pressure.

**Kirish:** Suv oqimi to'g'ri yo'naltirilmasa yoki baraban va kanal geometriyasi o'zaro muvofiq bo'lmasa, hajmiy va bosim yo'qotishlari ortadi. Barabanli konstruktsiya yordamida suv oqimining barcha qismi konussimon ichki devorlar orqali aylanuvchi parrak uchi tomoniga yo'naltiriladi. Bu esa suv oqimidagi impuls va bosim energiyasini maksimal darajada valga uzatishni ta'minlaydi[1].

Turbina ishchi qismi aylanish harakatida momentning qiymati kuchning aylanish markaziga nisbatan masofasiga mutanosibdir. Kuchni ko'paytiruvchi radius momentni oshiradi. Konussimon barabanli gidroturbinalar

gidravlik energiyani mexanik aylanish energiyasiga aylantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi[2]. Ushbu konstruktsiya suv oqimini barabanning torayuvchi qismida to'liq foydalanishga yo'naltiradi, bu esa hajmiy va gidravlik yo'qotishlarni kamaytiradi va valda maksimal buralish momentini hosil qilishga imkon beradi[3; 4].

Turbinaning umumiy quvvati:

$$P = \rho \cdot g \cdot V \cdot H \cdot \eta$$

Bu erda:

- $\rho$  – suv zichligi ( $\approx 1000 \text{ kg/m}^3$ ),
- $g$  – erkin tushish tezlanishi ( $9.81 \text{ m/s}^2$ ),
- $V$  – suv oqimi ( $\text{m}^3/\text{s}$ ),

- $H$  – foydali bosim ëki balandlik (m),
- $H$  – turbina foydali ish koeffitsiyenti.

#### Qurilmani tanlash sabablari:

- Konussimon baraban suv oqimini markazdan chekka tomon siqib chiqaradi, bu bosim va oqim tezligini barqarorligini oshiradi;
- Barabandagi chuqurcha tuzilishiga ko'ra suv energiyasi maksimal tutib qoladi;
- Buralish momentini oshirish orqali samaradorlik yuqori bo'ladi.

#### Qurilmaning afzalliklari:

- Murakkab dizayn;
- Yuqori moment olish imkoniyati;
- Bosim va impuls energiyasidan foydalanishda samarador;
- Hajmiy va gidravlik yo'qotishlar kamaygan.
- Konussimon shakldagi barabanli gidroturbinada suv oqimi baraban va tashqi korpusga siqilish orqali yuqori bosimda ta'sir qiladi.
- Hajmiy yo'qotishlar kamayadi, chunki suv oqimi konstruktiv ravishda chetga chiqmasdan, tashqi korpus va faqat turbina ishchi qismi orqali o'tadi.
- Valdagi buralish momenti ortganligi sababli, qulay energetik uzatish amalga oshadi.

Konussimon barabanli mikro gidroturbina konstruksiyasida baraban orqa qismlaridagi chuqurchalar orqa tomoni va konus uchlari qirrasimon shakldaligi, suvning oqimi ta'sirida aylanishi davomida qirralar suvning erkin chiqib ketishini osonlashtiradi. Bu esa peshona qarshilikni kamaytiradi va aylanishni yengillashtiradi. Ayniqsa, uchki qismlarda konussimon qirralarning mavjudligi yuqori bosim ta'sirida barabannig o'q atrofida silliq aylanishini ta'minlaydi.[2]

#### Suv bosimining buralish momenti ta'sirini aniqlash.

**Turbina barabaniga birlashtirilgan valdagi hosil bo'lgan quvvat:**

$$P_{fq} = M \cdot \omega$$

$P_{fq}$ -valdagi foydali quvvat.

$M$ -valning buralish momenti.

$\omega$ -siklik chastota.

Bu konstruksiyasida suv bosim ostida soplo orqali konussimon barabandagi chuqurchalarga yo'naltiriladi. Suv oqimi chuqurchalar va tashqi korpus ichida toraygan shakl tufayli oqim tezligi kamayadi, bosim ortadi, oqim yo'nalishining o'zgarishi va suvning baraban chetida siqilishi orqali valda **buralish momenti** oshishi kuzatiladi. [5;6;7].

Gidro turbina quvvati suv oqimi orqali aniqlanadi.

Gidroturbina valida hosil bo'ladigan buralish momenti (torque) va valning aylanish tezligi (angular velocity) qurilmaning mexanik samaradorligini aniqlovchi muhim

parametrlardandir. Buralish momenti asosiy formulasi:

$$M = F \cdot r$$

Bu yerda:

- M – buralish momenti (Nm),
- F – val uchiga ta'sir etuvchi kuch (N),
- r – kuch ta'sir qilayotgan nuqtaning val markazidan uzoqligi (m).

Buralish momenti real tajriba natijalariga asoslangan holda mexanik dinamometr orqali aniqlanadi. [7;8]

### Foydali ish koeffitsiyenti (FIK) va yo'qotishlar.

Gidroturbinaning energetik samaradorligini baholashda foydali ish koeffitsiyenti ( $\eta$ ) asosiy mezon hisoblanadi. U, turbina yordamida olinadigan foydali quvvatning unga berilgan umumiy energiyaga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\eta = \frac{P_{foydali}}{P_{um}} \cdot 100\%$$


Bu yerda:

$P_{foydali}$  – turbinada hosil bo'lgan mexanik quvvat (Vat),


$P_{um}$  – umumiy quvvat (W).

### Konstruktiv tahlil:

Mazkur qurilmada ishchi organ sifatida tanlangan konussimon barabanning alohida, yaqindan ko'rinishi berilgan. Bu g'ildirak ichki qismi bo'sh, kovushlar esa baraban periferiyasiga radial joylashtirilgan. Ushbu struktura turbinaga yengillik beradi, aylanishda minimal qarshilik yaratadi va suv oqimini maksimal foyda bilan qabul qilib, ishlatib bo'lingan suvni tashqariga tez uzatishni ta'minlaydi. [9]



**1-rasm. 1-suv oqimi kiruvchi qism, 2-suv oqimi chiquvchi qism, 3-tashqi korpus, 4-konussimon baraban, 5-barabandagi chuqurchalar.**




**2-rasm. 4-konussimon barabanning yuqoridan ko'rinishi. 5-barabandagi chuqurchalar.**

2-rasmda konussimon barabanning yuqoridan qaralgan holdagi ichki joylashuvi tasviri yuqoridagi umumiy rasmdan olingan bo'lib qurilmaning umumiy tuzilishini to'liq tasavvur qilishga yordam beradi. Barabandagi kovush 5-chuqurchalar suv oqimini qabul qilib, burish momentini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bunday

geometriya suv oqimining energiyasini maksimal darajada aylanma harakatga o'tkazishga mo'ljallangan.

Konussimon barabandagi har bir kovushga tushgan suv oqimi unga normal yo'nalishda ta'sir qilib, barabanni burishga majbur qiladi. Barabanning harakatlanishi natijasida o'q orqali mexanik energiya tashqariga uzatiladi.

### **Ishchi organning konstruksiyasi va elementlari.**




### **3-rasm. Barabanning o'zagi, himoyalangan podshipniklar, val va shkivlar bilan to'liq yig'ilgan holdagi ko'rinishi.**

Baraban har ikki tomondan valga mahkamlangan, val uchlariga esa shkivlar joylashtirilgan. Bu shkivlar orqali aylanma harakat mexanik uzatmalar yordamida generatorga uzatiladi. Ko'rinib turibdiki, barabangi kovushlar orasidagi masofa va burchak osti juda aniq hisoblangan. Baraban o'qiga suv Bu esa energiya yo'qotilishini kamaytiradi.

tushganda, suv oqimi turli kovushlarga ketma-ket ta'sir ko'rsatib, aylanishni ta'minlaydi. SHu bilan birga, har bir kovush konussimon ko'rinishda bo'lib, uning ichki devorlari suv oqimini o'z ichiga tortib, yo'naltirish funksiyasini ham bajaradi

### **Baraban va tashqi korpus konstruksiyasining o'zaro mosligi.**



### **4-rasm. Baraban tashqi korpus ichiga joylashtirilgan holda, korpus va baraban orasida faqat 1 mm oraliq qoldirilgan. Bu juda aniq ishlangan moslik barabanning ixcham va erkin aylanishiga imkoniyat beradi.**

Bu kabi konstruktiv yaqinlik baraban orqali o'tayotgan suv oqimini korpus devorlariga siqilib harakatlanishiga olib keladi. Bu esa suv oqimining bosimini oshiradi va aylanishdagi samaradorlikni ortadi. Harakatlanuvchi baraban suv oqimining barcha energiyasini bir tomonlama qabul qilib suv energiyasini ko'proq foydali ishga aylantirish imkonini beradi. SHu bilan birga, bunday yonlama harakat suv

oqimining qayta barabanga tushish ehtimolini kamaytiradi, bu esa energiya yo'qotilishini yanada kamaytiradi. [10]

Qurilmaning mazkur konstruksiyasi suv oqimini maksimal darajada foyda bilan ishlatishni ta'minlaydi. Har bir element – tashqi korpus, baraban shakli – suv energiyasini mexanik burovchi kuchga aylantirishga qaratilgan.

Mikro gidroturbina qurilmasining asosiy elementi – parraklar vazifasini bajaruvchi konussimon baraban metall listdan yasilib, undagi chuqurchalar soplo orqali yo‘naltirilgan suvni maksimal darajada qabul qilishi uchun baraban chetki uchlariga tomon chuqurcha shaklida joylashtirilgan. Barabandagi har bir parrak vazifasidagi uchi oldi tomoni keng yuzali, bu yuzada chuqurcha boshlanib, uning orqa tomoniga cho‘zilgan bo‘lib, bu suv zarbasining yo‘nalishini konussimon baraban uchu tomoniga yo‘naltiradi. [11]

Baraban valga qattiq mahkamlangan holda joylashtirilgan. Ichki chuqurchalarning joylashuvi markaziy o‘qqa nisbatan simmetrik tarzda tanlangan bo‘lib, barqaror aylanishini ta‘minlaydi.

Valning har ikki uchida podshipniklar o‘rnatilib, aylanishda kam ishqalanish ta‘minlandi. Qurilmaning yon ko‘rinishida chuqurchalarning orqa qismi qirrali va aerodinamik qarshilikni kamaytiruvchi shaklda. Baraban suv yordamida aylanish jarayonida **Qirralar suvning qarshiligini kamaytiradi (5-rasm).**



**5-rasm. Barabanli turbina ishchi organining yon ko‘rinishi.**

### **Tashqi korpusli ishchi model va tayyor laboratoriya konstruktsiyasi.**

Barabanli turbina modelining sinov varianti laboratoriya sharoitida tayyorlandi. Bu modelda bitta kirish

(ta‘minot quvuri) va bitta chiqish teshigi mavjud bo‘lib, suv oqimi faqatgina barabanning ishchi qismiga yo‘naltirilgan. Qurilmaning markaziy qismida barabanga birlashtirilgan valga o‘rnatilgan shkiv mavjud (4-rasm).



**6-rasm. Barabanli turbina ishchi holatdagi ko‘rinishi.**

Shuningdek, boshqa bir modelda ikkita soplo orqali suv beriladi. Bu yechim

turbina barabanining teng taqsimlangan aylanishiga xizmat qiladi (7-rasm).



**7-rasm. Ikkita ta‘minot quvuriga ega konstruktsiya. Suv barabanning har ikki tomoniga bir xil ta‘sir qiladi.**

**Tajriba sinov tahlili:** Sinov jarayonida quyidagi o‘lchov asboblari va usullari qo‘llanildi:

- Aylanish chastotasini aniqlash: taxometr yordamida baraban va lining aylanish soni o‘lchandi;
- Valning buralish momenti: aylanuvchi valning radiusini 10

mm bo'lgan holda, unda hosil bo'luvchi burovchi kuch dinamometr bilan aniqlanib,  $M=F \cdot r$  formuladan buralish momenti hisoblandi;

- Suv sarfi: tajribaviy o'lchov usuli bilan, chiqihdagi suv oqimi sig'imli idishda to'lish vaqti asosida;
- Chiqish quvvati: Valdagi foydali quvvat  $N=M \cdot \omega$  formula orqali, bu yerda burchak tezlik  $\omega=2\pi \cdot f$  formula yordamida hisoblandi;

Konussimon barabanli gidroturbinani ustida dastlab tashqi korpus o'rnatilmagan holda tajriba o'tkazildi. So'ngra konussimon barabanli gidroturbinaga tashqi korpus o'rnatilgan holda tajriba o'tkazildi. Ushbu bo'limda ikki holat uchu o'lchov natijalari tahlili keltirilgan.

**1-jadval.** Tashqi korpussiz va tashqi korpusli holatlar uchun barabanli gidroturbina ustida o'tkazilgan tajriba natijalari.

No	Suv sarfi Q (m <sup>3</sup> /s)	Suvning soplodan chiqish tezligi (m/s)	Valning aylanish chastotasi (aylanish minut) n	Valdagi hosil bo'luvchi burovchi kuch (N) F (tashqi korpussiz)	Valdagi hosil bo'luvchi burovchi kuch (N) F (tashqi korpusli)
1	0.001	3.2	93	38.1	44
2	0.002	6.4	184	155	180
3	0.0027	8	249	282	330


### Suv sarfiga bog'liq holda buralish momenti o'zgarishi.

**2-jadval.** Tashqi korpusli va tashqi korpussiz holatlar uchun barabanli

gidroturbina o'rnatilgan suv sarfiga bog'liq holda buralish momentlari. m<sup>3</sup>

Suv sarfi Q (m <sup>3</sup> /s)	Tashqi korpusli holatda(Nm)	Tashqi korpus holatida (Nm)
0.001	0.383	0.455
0.002	1.54	1.83
0.0027	2.80	3.32

### 1-Grafik. Suv sarfiga bog'liq holda buralish momentini o'zgarishi.



Quyidagi jadvaldan Tashqi korpusli va tashqi korpusiz holatlar uchun barabanli barabanli turbina validagi foydali quvvatlarini ko'rish mumkin [12]. Hisob-kitoblar quyidagi formulaga asoslangan:

$$P = M \cdot \omega$$


Buyerda:

- P – valdagi foydali quvvat, W
- M – buralish momenti, Nm
- $\omega$  – burchak tezlik, rad/s

**3-Jadval.** Buralish momentlari bo'yicha quvvatlar.

Suv sarfi Q (m³/s)	Burchak tezlik (rad/s)	Tashqi korpusiz holatda buralish momenti (Nm)	Tashqi korpus holatida buralish momenti (Nm)	Gidravlik quvvat P (W)	Tashqi korpusiz holatda valdagi quvvat (W)	Tashqi korpus holatida valdagi quvvat (W)
0.001	9.77	0.383	0.455	5	4	4.5
0.002	19.54	1.54	1.83	41	30	35.7
0.0027	26.37	2.80	3.32	98	73	88

**2-Grafik.** Turbina validagi foydali quvvatlarining suv sarfiga bog'liqlik grafigi.



### Xulosa

Tajriba natijalari va grafik tahlillar quyidagilar:

- Suv sarfi ortishi bilan buralish momenti ham ortib boradi.
- Barabanli turbina konstruksiyasi ayniqsa, yopiq (korpusli) holatda ishlatilganda sezilarli afzallik beradi.
- Tashqi korpus o'rnatilgan turbina validagi foydali quvvat nisbatan 12% gacha ko'proq.
- Barabanli turbina yuqori bosim ostidagi yopiq tizimlarda barqaror ishlashi, konussimon baraban uchlaridagi qirralarning suv ta'sirini kamaytirishi bilan ajralib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. RU 126765 U1, RU 83545 U1, RU 2146336 C1.
2. Ergashev Rustam Raximovich, Xayitov Zokir Turaboyevich. № FAP 2574. Foydali modelga berilgan patent.
3. K.SH. Latipov O.M. Arifjanov. "Gidravlika va gidravlik mashinalar". Toshkent, Munavvarov A. A. "Gidromexanika va mashinasozlik asoslari", Irrigatsiya va melioratsiya instituti. Toshkent, 2011, 163-b.
4. M.M.Muxammadiev, B. XAMDAMOV, D.A. Mamatkulov. Hidroenergetika izlanishlari, geodeziya. Toshkent 2019. 233b
5. A.Jo'rayev, R. Tojiboyev. Amaliy mexanika. T., «Fan va texnologiya», 2007. 236-42 bet. NamDU-ARM-7200-Amaliy\_mexanika..pdf .
6. R.I.Karimov K.A.Karimov N.N Begimov. – Mashina va mexanizmlar nazariyasi – Sano standart. Toshkent-2019. 56-60 b.
7. D.V. Shterenlixt Gidravlika.- Moskva: Energoatomizdat, 1992.- 600 b.

8. N.Kobayashi. "Hydropower Environmental Guidelines", IEA Report, 2021. p. 35-41.
9. Rustam Rakhimovich Ergashev. Zakir Turaboyevich Khaitov. EFFICIENT USE OF LOW-PRESSURE WATER ENERGY. MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL.
10. Vishnu Prasad, Saroj Rangnekar. Performance analysis of nozzles used in impulse hydraulic turbine using cfd. National Institute of Technology, Bhopal.
11. Paish, O. (2002). Small hydro power: technology and current status. Renewable & Sustainable Energy Reviews, 6(6), 537–556.
12. Williams, A.A., Simpson, R. (2009). Pico hydro—reducing technical risks for rural electrification. Renewable Energy, 34, 1986–1991.

УДК: 338.48:502.131.1

**Халилов Сирожиiddин Шерали ўғли**  
*Alfraganus университети профессори, DSc*  
ORCID ID: 0009-0003-0006-0951

**Хубони Сорбон**  
*Тожикистон туризм ва тадбиркорлик*  
*халқаро университети доценти*

## **ТУРИЗМНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИШ САМАРАДОРЛИГИ**

**Аннотация.** Мазкур мақола Ўзбекистон миллий иқтисодиёти таркибида туризм соҳасининг ривожланиш тенденцияларини тадқиқ қилишга бағишланган. Мақолада, жумладан, туризм соҳасида қайд этилган статистик кўрсаткичлар таҳлил қилинган. Шу билан бирга, туризм соҳасини барқарор ривожлантиришга оид илмий-амалий таклифлар асосланган.

**Калит сўзлар:** туризм, инфратузилма, хизматлар экспорти, туристик оқим, туризм ресурслари, барқарор ривожланиш.

## **ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТУРИЗМА**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению тенденций развития туристического сектора в структуре национальной экономики Узбекистана. В статье анализируются статистические показатели, зафиксированные в туристическом секторе. Одновременно с этим, на их основе предлагаются научно-практические решения по устойчивому развитию туристического сектора.

**Ключевые слова:** туризм, инфраструктура, экспорт услуг, туристический поток, туристические ресурсы, устойчивое развитие.

## **EFFICIENCY OF STATE REGULATION OF TOURISM**

**Abstract.** This article highlights tourism development trends within Uzbekistan's national economy. It analyzes statistical indicators recorded in the tourism sector and, based on these indicators, proposes scientific and practical solutions for the sustainable development of the tourism sector.

**Key words:** tourism, infrastructure, services export, tourist flow, tourism resources, sustainable development.

## Кириш.

Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UN Tourism) маълумотларига кўра, 2025 йил жаҳон туризм тарихидаги энг яхши йил бўлди. Туризмнинг жаҳон иқтисодиётига қўшган умумий ҳиссаси 10 триллион евро эквивалентида баҳоланди. Туризм глобал ялпи ички маҳсулотнинг 10,3 фоизини ташкил этди. Ушбу календарь йилида жами 1,52 миллиард халқаро саёҳатлар амалга оширилди. Улардан 793 миллиони дунёнинг энг машҳур минтақаси бўлиб қолаётган Европага тўғри келади. Кунига ўртача 219 мингта халқаро ташриф қайд этилди. Расмий меҳнат фаолиятини олиб бораётган ҳар уч кишидан бири туризм соҳасида банд<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> unwto.org – Бутунжаҳон туризм ташкилоти расмий сайти маълумотлари.

<sup>3</sup> Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация. –С.: 2020. -275 б.; Тухлиев И.С., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик (Учинчи нашр) –Т.: «Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи», 2021. -424 б.; Маматкулов Х.М., Бектемиров А.Б., Тухлиев И.С., Норчаев А.И. Халқаро туризм. Дарслик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. -192 б.; Муминов Н.Г., Қодирзода Ф.С., Гусейнов Х.Ф., Хубони Сорбон. Особенности развития туризма в условиях изменения климата: сезонность и минимизация его негативного влияния. “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabov jurnali. 2025-yil, oktabr, 10-son. С.14-20; Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.; Муминов Н.Г. Международный туризм: проблемы и

## Адабиётлар шарҳи.

Туризм соҳасини барқарор ривожлантириш муаммолари олимлар диққат марказидаги долзарб масала сифатида чуқур ўрганилмоқда. М.Алиева, И.Тухлиев, А.Норчаев, Х.Маматкулов, Н.Муминов, У.Матякубов, Б.Сафаров, О.Хамидов, А.Эштаев, С.Абдухамидов, Ш.Якубжонова<sup>3</sup> сингари тадқиқотчилар мавзунинг айрим жиҳатларига тўхталиб ўтишган. Хусусан, М.Алиева туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш методологиясига янги ёндашувни таклиф этган. И.Тухлиев, Х.Маматкулов туристик фаолиятни ташкил этиш ва ривожлантиришнинг илмий-назарий асосларини

перспективы. Международная коллективная монография / под общей редакцией Муминова Н.Г. –Ташкент: «ALFRAGANUS UNIVERSITY», 2026. 405 стр.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2016. 184 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). Докторлик диссертацияси. -Самарқанд, СамИСИ, 2019.; Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. ДСс. диссертация автореферати. –Тошкент, 2021.; Ш.Т.Якубжонова Агротуризмнинг табиий географик жиҳатлари (Ўзбекистон мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. Тошкент. ТошДПУ, 2018. -39 б.; Абдухамидов С.А. Минтақавий туризмнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. Самарқанд. СамИСИ, 2021.-62 б.

яраташга ҳисса қўшган. А.Норчаев, О.Хамидов экотуризм дестинацияларининг ташкилий тузилмасини шакллантириш юзасидан илмий натижаларга эришган. У.Матякубов Оролбўйи минтақасининг туристик салоҳиятини халқаро туризм бозорида тарғиб қилиш усулларини такомиллаштирган. Б.Сафаров миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг асосий йўналишларини умумлаштирган. С.Абдухамидов, Ш.Якубжонова эса минтақаларда туристик кластерлар фаолиятини самарали йўлга қўйиш имкониятларини очиб берган. Бироқ санаб ўтилган олимлар томонидан мавзунинг статистик таҳлили, олимлар таъсири ва ривожланиш истиқболлари атрофлича тадқиқ қилинмаган. Ушбу мақола айна масалаларни қамраб олганлиги билан аҳамиятга молик.

#### **Тадқиқот методологияси.**

Тадқиқотни амалга оширишда танлаша кузатиш, солиштириш, гуруҳлаш, эмпирик ёндашув, эксперт баҳолаш, омилли таҳлил каби методлардан фойдаланилган. Ушбу методларни ўз ўрнида қўллаш илмий хулосаларнинг ишончлилигини таъминлаган.

#### **Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.**

2025 йилда 11,7 миллион нафар чет эл фуқаролари Ўзбекистонга туристик мақсадларда келган. Бу кўрсаткич 2024 йилга нисбатан 3,7 миллион нафарга ёки 46,8 фоизга ошган. Кириш туризмида қўшни давлатлардан ташқари энг йирик улуш Россия, Хитой, Туркия, Ҳиндистон ва Жанубий Кореяга тегишли. Туристлик хизматлар экспорти 4,8 миллиард АҚШ долларига тенг бўлди. Ўзбекистонга тижорат мақсадида 446,8 минг нафар чет эл фуқароси ташриф буюрган. Бу кўрсаткич 2024 йилга нисбатан 247,8 минг нафарга кўп бўлиб, 2,2 баробарга ошган. Тижорат мақсадида келган туристлар таркибида Афғонистон, Тожикистон, Туркменистон, Россия, Қозоғистон, Туркия фуқаролари етакчилик қилган<sup>4</sup>.

Ўзбекистонга кириш учун визасиз тартиб жорий этилган давлатлар сони 94 тага етган. 2026 йил якунига қадар хорижий туристлар оқимини 12 миллион нафарга етказиш чоралари кўрилади. Биргина Самарқанд вилоятига ташриф буюрувчи хорижий туристлар сонини 5 миллион нафарга етказиш белгиланган. Бунинг учун “Ипак йўлида туризм” Тошкент халқаро туризм ярмаркаси, “Uzbekistan Airports, Aviation & Logistics” халқаро авиация форуми, “Delicious

<sup>4</sup> gov.uz/oz/uzbektourism – Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси расмий сайти маълумотлари.

Uzbekistan” (“Лаззатли Ўзбекистон”) халқаро гастрономик фестивали, хунармандчилик маҳсулотлари кўргазмаси, туризм таълими форуми, “Silk Road Tourism Awards” тақдирлаш маросими, глобал туризм медиакампуси, этно-ўйинлар фестивали ўтказилади.

Ўзбекистон туризм салоҳиятини АҚШ, Форс Кўрфази давлатлари (Бирлашган Араб Амирликлари, Саудия Арабистони, Қатар, Қувайт, Баҳрайн, Уммон), Ҳиндистон, Хитой ва Скандинавия (Дания, Норвегия, Швеция) каби устувор бозорларда илгари суриш бўйича маркетинг стратегиялари белгилаб олинган. Туристлик оқимни ошириш бўйича кенг қамровли тарғибот кампанияси олиб борилади, хусусан, потенциал инвесторлар билан B2B мулоқотлар — Road Show ташкил этилади, машҳур блогер ва влогерлар Ўзбекистонга олиб келинади. Самарқандда “Самарқанд мероси йўлаги” лойиҳаси иш бошламоқда. Регистон ансамбли, Бибиҳоним ва Шоҳи Зинда мажмуалари, Мирзо Улуғбек расадхонасини 6,6 километрлик ягона туризм маршрути ўзаро боғлайди. Самарқандда “Ипак йўли” музейи қурилади. Умумий майдони 19,5 минг квадрат метрни ташкил этадиган уч қаватли замонавий бино қурилиб, унда инклюзив муҳит, иммерсив кўргазма заллари, экспонатларни сақлаш фонди, таълим олишга мўлжалланган ҳудудларни яратиш

кўзда тутилган. Бундан ташқари, жамоа шартномалари ва тармоқ келишувлари орқали ички туризмни ривожлантиришга қаратилган “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг!” дастури доирасида 150 минг нафар ходимлар ва уларнинг оила аъзоларининг ўз ҳудудларидаги диққатга сазовор қадамжоларга, тарихий шаҳарларга саёҳатлари ташкил этилади.

Туристлар оқими тобора ошаётгани авиация ва темир йўлда йўловчи ташиш қувватини 2 баробар кўпайтиришни тақозо этмоқда. Шу боис, 2026 йилда авиапаркдаги ҳаво кемаларининг сони 120 тага етказилади. Авиакомпаниялар томонидан лизинг шартномаси асосида қўшимча 15 та ҳаво кемалари олиб келинади. 2026/2027 ўқув йилидан учувчилар, техник хизмат кўрсатувчилар, аэропорт сервис ва бошқаруви бўйича малакали мутахассисларни тайёрлашга ихтисослашган Фуқаро авиацияси университети фаолияти йўлга қўйилади. Ички темир йўлларни ривожлантириш, шаҳарларни тезюрар пойездлар қатнови билан боғлаш, автомобиль йўллари сифатини яхшилаш, транзит салоҳиятини янада ошириш бўйича беш йиллик дастур қабул қилинади.

2026 йил 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистонда жами жойлаштириш объектлари сони 6 800 тадан иборат. Ётоқ ўринлари сони 184 000 тани ташкил этади.

Биргина 2025 йил давомида ҳудудларда 954 та янги жойлаштириш воситалари, жумладан, 128 та меҳмонхона, 506 та оилавий меҳмон уйи, 268 та хостел ва 52 та бошқа турдаги жойлаштириш объектлари фаолияти йўлга қўйилган. Туризм маҳаллалари ва қишлоқлари сони 32 тага етказилиб, туризм ва унга ёндош соҳаларда 16,1 мингга яқин янги иш ўринлари яратилган. Бугунги кунда “Зомин”, “Чимён”, “Амирсой” курорт зоналари мавжуд. 2026 йил якунига қадар Самарқанд вилояти Нуробод тумани Нурбулоқ шаҳарчасини мастер режа асосида 12 ой узлуксиз хизмат кўрсатувчи курорт зонага айлантириш учун инфратузилма барпо этилади. Шунингдек, “Оҳалик-Оқбўйро-Миронқул” туристик-рекреацион зонаси инфратузилма билан таъминланади. Ўзбекистонда экотуризм ҳам жадал ривожланмоқда. Бугунги кунда 8 та кўриқхона, 2 та миллий табиат боғи, 9 та давлат кўриқхонаси, ноёб ҳайвонларни кўпайтириш бўйича “Жайрон” республика экомаркази мавжуд. Ўзбекистон Қизил китобига ҳайвонларнинг 184 тури, жумладан, қушларнинг 48, сутэмизувчиларнинг 25 тури киритилган. Хоразм вилоятининг агротуристик хўжаликлари, Сирдарё вилоятидаги Қалгансир, Қорақир кўлидаги

экотуризм маркази, Сайхун кўриқхонасидаги тўқайзорлар овчилик туризми дестинацияси сифатида ривожланмоқда<sup>5</sup>.

2025 йилда 7,6 миллион нафар Ўзбекистон фуқаролари туристик мақсадларда чет элга сафар қилган. Бу кўрсаткич 2024 йил билан солиштирилганда 1,4 миллион нафарга ёки 22,2 фоизга ошган. Ўзбекистон фуқаролари энг кўп Қирғиз Республикаси, Қозоғистон, Тожикистон, Россия, Саудия Арабистони, Туркия, Бирлашган Араб Амирликлари, Миср, Хитой ва Вьетнам давлатларига сафар қилган.

2030 йилгача бўлган ўрта истиқболда:

- туризмнинг Ўзбекистон ЯИМ даги улушини 2025 йил якунига кўра қайд этилган 3,5 фоиздан 7 фоизгача ошириш;
- хорижий туристлар оқимини йиллик 20 миллион кишига етказиш, бунда юқори тўлов қобилиятига эга туристларга алоҳида эътибор қаратиш;
- туристик хизматлар экспортини ҳар йили 6 миллиард АҚШ долларидан ортиқ даражага ошириш;
- ички авиқатновлар сонини кўпайтириш, йўлга кетадиган вақтни камида 3 баравар қисқартириш;

<sup>5</sup> gov.uz/oz/eco – Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси расмий сайти маълумотлари.

- меҳмонхона секторида 4-5 юлдузли жойлаштириш объектлари сонини икки баравар ошириш;

- туристик маҳсулотларни диверсификация қилиш ва туристик ресурслар салоҳиятидан рационал фойдаланиш;

- “Uzbekistan” туристик маҳсулотининг халқаро брендини яратиш ва жаҳон бозорида глобал позициялаш режа қилинган.

### **Хулоса ва таклифлар.**

Туризм соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий дастаклари сифатида қуйидагилар белгиланди:

- ◆ 2030 йил 1 январгача хизмат кўрсатиш сифатини оширишни кўзлаган ҳолда халқаро меҳмонхона брендларини усқуналар, мебель ва техника олиб киришда божхона божларидан озод этиш (Brand Finance рейтингининг ТОП-50 талигига кирувчи брендлар остида меҳмонхоналар қуриш шарти билан);

- ◆ 2027 йил 1 январгача транспорт инфратузилмаси таъминотини модернизация қилиш мақсадида туризм учун автобуслар, электроавтобуслар ва микроавтобусларни олиб киришда божхона божидан озод этиш;

- ◆ 2026 йил 1 апрелдан юқори мультипликатив таъсирга эга MICE туризмида тўланган қўшилган қиймат солиғининг 50 фоизини қайтариш (тадбирда камида 100 нафар хорижий иштирокчи бўлиши шарти билан);

- ◆ 2026 йил 1 февралдан истеъмол талаби ва туристларнинг харажатларини рағбатлантириш механизми сифатида чет эллик туристларга Ўзбекистон Республикасидан чиқиб кетишда тўланган қўшилган қиймат солиғини нақд шаклда қайтариш;

- ◆ 2026 йил 1 мартдан инновациялар ва туристик стартапларни қўллаб-қувватлаш йўналишида ҳар йили 10 та энг яхши лойиҳа харажатларининг 50 фоизини субсидиялаш (ҳар бир лойиҳа учун 1 миллиард сўмдан ошмаган миқдорда);

- ◆ барқарор туризм концепциясига мувофиқ “яшил” сертификатларни жорий қилиш заруратидан келиб чиқиб, меҳмонхоналарнинг халқаро миқёсда тан олинган экологик сертификатларни олиш билан боғлиқ харажатлари 50 фоизини компенсация қилиш мўлжалланган.

Хулоса қилиб айтганда, туризм соҳасини барқарор ривожлантириш кафолатларини мустаҳкамлаш учун қуйидаги таклифларни инобатга олиш мақсадга мувофиқ, хусусан:

- туристларнинг Ўзбекистон ҳудудида жойлашган тарихий мерос объектлари ва маданият муассасаларига ташрифини қулайлаштирувчи 48 соат интервалидаги “One ticket – one pass” (“Барча маданият муассасаларига кириш учун ягона чипта”) тизимини йўлга қўйиш;

- Ўзбекистон миллий туризм маҳсулотини ташқи бозорларда мақсадли тарғиб қилишнинг таргетинг механизмини ишлаб чиқиш;

- эко-, этно-, спелео-, агротуризм маршрутларини

режалаштириш ва туристик оқимни мунтазам жалб қилиш;

- маҳаллий туристик фирмаларнинг янги ташқи бозорларга кириб боришини фаол рағбатлантириш чораларини кўриш муҳим аҳамиятга эг

### Адабиётлар:

1. Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация. –С.: 2020. - 275 б.;
2. Тухлиев И.С., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик (Учинчи нашр) –Т.: «Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи», 2021. - 424 б.;
3. Маматкулов Х.М., Бектемиров А.Б., Тухлиев И.С., Норчаев А.И. Халқаро туризм. Дарслик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. - 192 б.;
4. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2016. 184 б.;
5. Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). Докторлик диссертацияси. -Самарқанд, СамИСИ, 2019.;
6. Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. ДСс. диссертация автореферати. –Тошкент, 2021.;
7. Ш.Т.Якубжонова Агротуризмнинг табиий географик жиҳатлари (Ўзбекистон мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. Тошкент. ТошДПУ, 2018. -39 б.;
8. Абдухамидов С.А. Минтақавий туризмнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. Самарқанд. СамИСИ, 2021.-62 б.
9. Эштаев А., Нурфайзиёва М. (2025) Туризм сиёсати ва режалаштириш. Дарслик – Т.: “Инновацион ривожланиш” нашриёт-матбаа уйи, 208 бет.
10. Тиловмуродов Д. Экскурсия иши. (2025) Ўқув қўлланма – Т.: Alfraganus University нашриёти, 136 бет.

11. Халилов С. (2025) Туризмни ўрта истиқболда самарали ривожлантиришнинг муқобил стратегияси. International scientific journal of Management, marketing and finance – 9-сон 13-16 бетлар.
12. Муминов Н.Г., Қодирзода Ф.С., Гусейнов Х.Ф., Хубони Сорбон. Особенности развития туризма в условиях изменения климата: сезонность и минимизация его негативного влияния. “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. 2025-yil, oktabr, 10-son. С.14-20
13. Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.
14. Муминов Н.Г. Международный туризм: проблемы и перспективы. Международная коллективная монография / под общей редакцией Муминова Н.Г. – Ташкент: «ALFRAGANUS UNIVERSITY», 2026. 405 стр.
15. Пардаев М. (2022) Иқтисодий стратегик ривожлантиришнинг инновацион моделлари. Монография. Т.: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 228 бет.
16. Амонбоев М., Халилов С. (2021) Барқарор туризм ривожланиши. Ўқув қўлланма – Т.: Иқтисодий, 110 бет.
17. Абидова Д. (2023) Ўзбекистонда экологик меҳмонхоналар фаолиятини юритиш методологиясини такомиллаштириш. Монография – Т.: “Илм-фан ва инновация” нашриёти, 100 бет.
18. Шадибекова Д. (2021) Ўзбекистонда хизматлар соҳасини ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар. Монография – Т.: Иқтисод-молия, 136 бет.
19. [unwto.org](http://unwto.org) – Бутунжаҳон туризм ташкилоти расмий сайти.
20. [gov.uz/uz/uzbektourism](http://gov.uz/uz/uzbektourism) – Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси расмий сайти.
21. [afu.uz](http://afu.uz) – Alfraganus университети расмий сайти.
22. [gov.uz/uz/eco](http://gov.uz/uz/eco) – Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси расмий сайти маълумотлари.

**А. Насыров***почетный профессор университета Альфраганус  
член Экодвижения Республики Узбекистан*

## **ВОДНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ДИСКУССИЯ О ПЕРЕБРОСКЕ ЧАСТИ СТОКА СИБИРСКИХ РЕК: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ.**

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема водной безопасности Центральной Азии в контексте нарастающего дефицита водных ресурсов и возобновляющейся дискуссии о возможности межбассейновой переброски части стока сибирских рек. Анализируются исторические предпосылки данной идеи, современное состояние экспертных обсуждений и ключевые аргументы сторон. Особое внимание уделяется экологическим рискам, связанным с потенциальным сокращением речного стока в Арктический бассейн и трансформацией экосистем Западной Сибири, включая приустьевые районы Карского моря и территории интенсивной нефтедобычи.

Показано, что при умеренных объёмах переброски (5–10 км<sup>3</sup> в год) влияние на глобальные климатические и океанографические процессы оценивается как ограниченное, однако локальные экосистемные последствия требуют детального моделирования и оценки. В экономическом разделе рассматриваются современные технологические возможности транспортировки воды, потенциальное снижение энергетических и эксплуатационных затрат по сравнению с проектами советского периода, а также необходимость комплексного учёта экологических издержек.

Делается вывод о том, что проекты переброски стока могут обсуждаться лишь в рамках многофакторного анализа, сочетающего экологическую устойчивость, экономическую целесообразность и международное водное сотрудничество.

**Ключевые слова:** водная безопасность, Центральная Азия, сибирские реки, межбассейновая переброска стока, экологические риски, Арктика, Западная Сибирь, климатические изменения, экономика водных ресурсов.

### 1. Введение

Проблема водной безопасности Центральной Азии приобретает всё более выраженный стратегический характер и непосредственно связана с вопросами устойчивого развития, продовольственной безопасности и социально-экономической

стабильности [1; 2]. По оценкам международных организаций, к середине XXI века водный дефицит в регионе может увеличиться на 25–30% по сравнению с текущим уровнем потребления [3].

На этом фоне в экспертной среде периодически возобновляется

дискуссия о возможности частичной переброски стока сибирских рек в направлении Центральной Азии — идеи, истоки которой восходят к научным и инженерным обсуждениям второй половины XIX века [4], а наиболее системную разработку она получила в рамках советских проектов 1960–1980-х годов [5].

## 2. Современное состояние дискуссии

В начале XXI века интерес к данной проблематике усилился на фоне сообщений о возобновлении экспертного обсуждения возможных вариантов межбассейновой переброски воды в научных кругах Российской Федерации [6]. Это вызвало активную реакцию в средствах массовой информации и оживлённые дискуссии среди специалистов в области климатологии, экологии и экономики водных ресурсов [7].

## 3. Экологические риски: океанический и континентальный аспекты

По оценкам И.А. Репиной, даже при относительно умеренных объёмах переброски воды (5–10 км<sup>3</sup> в год) возможны экологические и экономические риски, требующие предварительного анализа и моделирования [8].

Средний годовой сток реки Обь составляет порядка 400–430 км<sup>3</sup>/год [9]. Таким образом, уменьшение стока на 10 км<sup>3</sup> эквивалентно снижению примерно на 2–2,5%. В масштабе суммарного речного притока в Северный Ледовитый океан, оцениваемого приблизительно в 4300

км<sup>3</sup>/год [10], такое сокращение соответствует лишь 0,2–0,25% общего пресноводного баланса.

**Abstract.** In this study, the theoretical and methodological foundations of developing students' healthy lifestyle competencies in the educational process were analyzed. A healthy lifestyle is illuminated as a holistic pedagogical system, its structural components such as historical and spiritual heritage, physical activity culture, rational nutrition, and emotional and volitional stability are substantiated. The study revealed the relationship between a healthy lifestyle and health, spiritual development, and social adaptation of the individual, and demonstrated the pedagogical possibilities of forming healthy life values in students through sports and physical education. Also, the socio-pedagogical conditions, methodological approaches, and the socializing role of sports activities serving the development of healthy lifestyle competencies in educational institutions have been substantiated. As a result, the theoretical foundations of an integrative pedagogical system that ensures the physical, spiritual, moral, psychological, and social development of students have been developed.

**Key words:** healthy lifestyle, healthy lifestyle competencies, students' health, physical education, sports activities, spiritual education, movement culture, rational nutrition, emotional stability, pedagogical conditions, socialization, harmoniously developed personality, healthy generation, educational process, pedagogical system.

**Kirish.** Sog'lom avlodni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor ijtimoiy-pedagogik

vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi nafaqat jismonan sog'lom, balki ma'naviy-axloqiy

jihaddan yetuk, ijtimoiy faol hamda hayotiy kompetensiyalarga ega barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Barkamollik tushunchasi pedagogik nuqtai nazardan insonning aqliy, ma'naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanish darajasining uyg'unligini ifodalaydi. Shuningdek, u shaxsning o'z kasbiy faoliyatida yetuklikka erishishi, jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan yashashi, ezgu g'oya va maqsadlar asosida bunyodkorlik faoliyatini amalga oshira olishi bilan tavsiflanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish barkamol shaxsni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy holatini mustahkamlash bilan bir qatorda uning irodaviy sifatleri, maqsadga intiluvchanligi, mas'uliyati va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Shu jihatdan sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egalagan o'quvchilar jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga, o'z salomatligini ongli ravishda boshqarishga hamda boshqalarga ijobiy namuna bo'lishga qodir bo'ladi.

Barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonida vatanparvarlik, qat'iyatlilik, jasorat, iroda mustahkamligi, mas'uliyatlilik kabi fazilatlar sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarining psixologik-pedagogik asosini tashkil etadi. Mazkur fazilatlar o'quvchilarda sog'lom hayotiy qadriyatlarni shakllantirish, zararli odatlarga qarshi immunitet hosil qilish hamda jismoniy faollikka ijobiy

munosabatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham zarur bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida sog'lom turmush tarzi me'yorlariga amal qilish muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Chunki sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga uning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanish darajasini ham belgilaydi. Shu nuqtai nazardan sport bilan muntazam shug'ullanish, tabiat bilan uyg'un munosabatni shakllantirish, shaxslararo ijobiy va qadriyatga asoslangan muloqotni yo'lga qo'yish, zararli odatlardan — ichkilikbozlik, giyohvandlik va boshqa salbiy ilatlardan saqlanish, ratsional ovqatlanish tamoyillariga amal qilish hamda milliy genofondni asrashga ongli munosabat sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim tarkibiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchilarda ma'lum shaxsiy sifatlar va ijtimoiy-psixologik fazilatlarni rivojlantirishni talab etadi. Jumladan, hayotsevarlik, boshqalarga yordam ko'rsatishga tayyorlik, xushmuomalalik, beg'arazlik, adolatlilik, bardoshlilik, barqarorlik, vijdonlilik, hamdardlik, jasurlik, qat'iyatlilik hamda ijobiy emotsional

holatlarni boshqarish qobiliyati sog'lom turmush tarzining shaxsiy komponentlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur sifatlar o'quvchilarning o'z salomatligiga ongli munosabatini shakllantirish, hayotiy qiyinchiliklarga moslashuvchanlikni rivojlantirish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarda individual psixologik xususiyatlar — o'ziga xos his-tuyg'ularni anglash, emotsional barqarorlikni saqlash, ijobiy motivatsiyani rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning muhim metodik asoslaridan biri hisoblanadi. Natijada sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ma'naviy-axloqiy yetukligini ham ta'minlovchi kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxs salomatligi va jamiyat salomatligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan yagona ijtimoiy hodisaning ikki tomonini tashkil etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish va ularda mazkur yo'nalishga oid kompetensiyalarni shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Sog'lom turmush tarziga ongli ravishda amal qilish o'quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning axloqiy-ma'naviy yetukligini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish hamda hayotiy faoliyat samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi insonning aql-idrokka asoslangan xulq-atvor va faoliyat tizimi sifatida talqin etilib, u madaniy-tarixiy tajriba, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar hamda milliy an'analar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tushuncha shaxsning jismoniy faollikni to'g'ri tashkil etishi, chiniqish tamoyillariga amal qilishi, ratsional ovqatlanish ko'nikmalarini egallashi, kun tartibini oqilona rejalashtirishi, kasalliklar va zararli odatlardan voz kechishi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar o'quvchilarning jismoniy, ruhiy, ma'naviy hamda ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlovchi muhim kompetensiyalar majmuasini tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sirini kuchaytiradi, ularda ijtimoiy faol hayot pozitsiyasini shakllantiradi hamda uzoq muddatli ijtimoiy tajribani egallashga zamin yaratadi. Natijada sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat shaxs rivojining barqarorligini ta'minlovchi hamda jamiyat salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim metodik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirish natijasida shaxs rivojining turli komponentlarini qamrab oluvchi kompleks sifatlar majmuasi tarkib topadi. Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarning ijtimoiy

moslashuvi, ma'naviy yetukligi, psixologik barqarorligi hamda fuqarolik faolligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Sog'lom turmush tarziga ongli ravishda amal qilish o'quvchilarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantiradi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi hamda shaxs sifatida yuqori darajadagi ma'naviy rivojlanishga erishish imkonini yaratadi.

Mazkur jarayon natijasida o'quvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga amal qilish, axloqiy me'yorlar asosida faoliyat yuritish, voqelikka rahmdillik va haqqoniylik mezonlari asosida yondashish kabi ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar shakllanadi. Shuningdek, yovuzlikka qarshi tura olish, qat'iyatlilik, ixtiyoriy harakatlarni muvofiqlashtirish, mustahkam ma'naviy ko'nikmalarni egalash kabi irodaviy sifatlar rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil hayotga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalar o'quvchilarning fuqarolik ongini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mustaqil davlat fuqarosi sifatida aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, jasorat va mas'uliyat ko'rsatish, g'oyaviy sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarni egallash hamda hayot mazmunini anglash qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, zararli odatlar — ichkilikbozlik, kashandachilik, giyohvandlik kabi il-latlarga qarshi turish, ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga

tanqidiy yondasha olish kompetensiyalari ham shakllanadi.

Psixologik va fiziologik jihatdan sog'lom turmush tarziga amal qilish o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtiradi, ijobiy kayfiyatni shakllantiradi, organizm faoliyatining uyg'unligini ta'minlaydi hamda hayotiy faoliyat barqarorligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda gender yetukligini ta'minlash, jinsiy va ijtimoiy yetuklikni muvofiqlashtirish, tanlov erkinligini ongli amalga oshirish kabi shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari ham shakllanadi.

Umuman olganda, sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini kompleks ta'minlovchi pedagogik jarayon bo'lib, u barkamol shaxsni shakllantirishning muhim metodik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish ularning faoliyatini ongli ravishda ijobiy va ezgu amallarni egallashga yo'naltirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayon pedagogik nuqtai nazardan o'quvchilarda sog'lom hayotiy qadriyatlarini anglash, ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish hamda shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish faqat jismoniy faollikni tashkil etish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning ong, motivatsiya va

qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatishni ham nazarda tutadi.

Ushbu jarayonda o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanish darajasi, balki ularning ma'naviy-axloqiy holati, ruhiy barqarorligi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi ham muhim pedagogik e'tibor obyektiga aylanishi zarur. Chunki sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy salomatligi bilan bir qatorda uning ma'naviy yetukligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ham belgilovchi kompleks hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchilarning shaxs sifatida uyg'un rivojlanishini ta'minlovchi integrativ pedagogik faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot metodlari.** Mazkur tadqiqotda ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini o'rganish maqsadida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ hujjatlar va metodik manbalar tahlil qilindi hamda mavjud nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Pedagogik kuzatish metodi orqali o'quvchilarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sport tadbirlaridagi faoliyati, sog'lom turmush tarziga oid xulq-atvori o'rganildi. Suhbat va anketa-so'rovnomalar yordamida o'quvchilar, o'qituvchilar hamda ota-onalarning sog'lom turmush tarziga munosabati, bilim darajasi va motivatsiyasi aniqlashtirildi.

Shuningdek, pedagogik tajribasinnov ishlari tashkil etilib, o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning samardorligi tekshirildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va xulosalash jarayonida matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanilib, olingan ma'lumotlar taqqoslandi hamda baholandi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni samarali shakllantirishga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlar shakllangan bo'lib, ularning nazariy ildizlari milliy-ma'naviy meros hamda tarixiy tajribaga borib taqaladi. Mutafakkir ajdodlarimiz va jadid ma'rifatparvarlari insonning aqliy salohiyati, bilish faoliyati, iqtidor va hayotiy faolligi uning jismoniy salomatligi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlab kelganlar. Mazkur qarashlar sog'lom turmush tarzining shaxs kamolotidagi muhim omil ekanligini asoslovchi muhim nazariy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, muqaddas Islom dini manbalarida — Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham inson salomatligini asrash, poklik va ozodalikka rioya qilish, jismoniy faollikni ta'minlash, harakat va mehnatsevarlikka intilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu holat sog'lom turmush tarzining nafaqat tibbiy yoki jismoniy, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida ham e'tirof etilganligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda yoshlarni jismoniy

chiniqtirish, sport o'yinlari bilan shug'ullanishga undash, hatto ayollarni ham jismoniy faollikka jalb etish orqali sog'lom avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilganligi qayd etiladi.

Milliy adabiy merosda ham sog'lom turmush tarzining ahamiyati badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Jumladan, "Alpomish", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda yoshlarning jismoniy chiniqishi, jasorat, bardoshlilik va irodaviy sifatlarni rivojlantirish zarurligi aniq misollar orqali ko'rsatib berilgan. Bu esa sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirishning tarixiy-madaniy asoslari mavjudligini tasdiqlaydi.

Mazkur an'analarni zamonaviy ta'lim tizimida davom ettirish maqsadida O'zbekistonda yoshlarni sportga jalb etish, jismoniy faolligini oshirish va sog'lom hayot tarzini qaror toptirishga qaratilgan davlat tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Besh muhim tashabbus" doirasida yoshlarning sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim ijtimoiy mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqa, jismoniy tarbiya hamda harbiy-vatanparvarlik fanlari o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi me'yorlarini shakllantirish, jismoniy faollikni rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishning muhim pedagogik vositalari hisoblanadi.

Umuman olganda, tarixiy-madaniy meros, diniy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim nazariy-metodik asoslarini tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning sog'lom turmush tarziga amal qilishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada keng ko'lamli tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, xotin-qizlar, ayniqsa, yosh qizlarning sport, xususan badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanishlariga keng imkoniyatlar yaratilgani o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon yoshlarning jismoniy faolligini oshirish bilan bir qatorda ularning estetik didi, irodaviy sifatlari va psixologik barqarorligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda yuzaga kelayotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlariga qaramasdan, yoshlarni jismoniy chiniqtirish va ma'naviy-intellektual jihatdan sog'lomlashtirish maqsadida sport musobaqalarini tizimli tashkil etishning barqaror asoslari yaratilgan. Ushbu sport tadbirlari o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ma'naviy qadriyatlari, milliy o'ziga xosligi hamda ijtimoiy faolligini

shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sport musobaqalari ajdodlarimizning jismoniy tarbiya an'alarini tiklash, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Sport sohasini rivojlantirish doirasida mamlakatimiz hududlarida zamonaviy sport inshootlari, sog'lomlashtirish markazlari hamda o'quvchilarning jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Bu holat ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur moddiy-texnik asoslarning mavjudligini ko'rsatadi. Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hamda o'zbek xalqining mentalitetiga tayangan holda shaxsning intellektual, axloqiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan sport musobaqalari o'quvchilarda milliy xarakter, ijtimoiy mas'uliyat, mustaqillik, ijodkorlik hamda irodaviy barqarorlik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'quvchilarda axloqiy-jismoniy sog'lomlikni, erkin fikrlashni, ijtimoiy faollikni va hayotiy kurashchanlik ko'nikmalarini rivojlantirib, ularning jamiyatda munosib hayot kechirishga tayyor bar-kamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Ma'naviy tarbiya jarayonini sport va jismoniy tarbiya bilan uzviy uyg'unlashtirish ta'lim oluvchilarda hayotga, mehnat faoliyatiga hamda Vatan himoyasiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur integratsiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda oilaviy muhitda sog'lom hayotiy qadriyatlarni mustahkamlashga, harbiy-vatanparvarlik hissini tarkib toptirishga ham xizmat qiladi. Sport va jismoniy tarbiya faoliyati orqali o'quvchilarda mas'uliyatsizlik, ma'naviyatsizlik, nojo'ya xatti-harakatlar, nohaqlik, tekinxo'rlik, boqimandalik, mansabparastlik kabi salbiy holatlarga nisbatan murosasiz munosabat hamda ijtimoiy kurashchanlik fazilatlari shakllanadi. Bu esa yoshlarni mardlik, qat'iyatlilik va irodaviy barqarorlikka undovchi muhim psixologik-pedagogik shart sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan, ijodkor shaxsning ma'naviy rivojlanishi milliy xarakterdagi ta'lim jarayonida amalga oshadi. Bunda o'quvchilarning intellektual salohiyati va axloqiy imkoniyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini sport va jismoniy tarbiya vositalari orqali erta yoshdan boshlab tizimli tashkil etish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aynan shu yondashuv asosida respublikamizda bolalar sportini rivojlantirishga

davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyat berilmoqda, bu esa sog'lom avlodni tarbiyalashning institutsional asoslarini mustahkamlamoqda.

Ma'naviyatlilik shaxsning hayotiy faolligini ta'minlovchi ichki ruhiy quvvat sifatida talqin etilib, u intellektual, axloqiy, estetik hamda diniy qadriyatlarning uyg'unligini o'zida mujasamlashtiradi. Mazkur integrativ sifat shaxsning ichki dunyosini namoyon etadi, uning o'zini anglash jarayonini faollashtiradi hamda faoliyatga motivatsiya beradi. Pedagogik nuqtai nazardan shaxs ma'naviyati, eng avvalo, turli ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu bois sport va jismoniy tarbiya faoliyati o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ma'naviy-axloqiy yetukligini ham ta'minlovchi muhim metodik vosita sifatida qaraladi.

Natijada sport va jismoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirilgan ma'naviy tarbiya jarayoni o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ajdodlarimiz insonning ma'naviy salomatligi jismoniy tarbiya va faol harakatlar natijasida shakllanishini alohida ta'kidlab kelganlar. Bu qarashlar sog'lom turmush tarzining nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-axloqiy asoslarga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirish muayyan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Ushbu shart-sharoitlar shaxs

rivojining jismoniy, psixologik, ma'naviy va ijtimoiy komponentlarini qamrab olgan holda kompleks xarakterga ega bo'ladi.

Avvalo, inson hayoti sifati sog'lom turmush tarzining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Hayot sifati ijtimoiy-iqtisodiy omillar — hayot davomiyligi, aholining bandlik darajasi, ta'lim va xizmatlar sohasining rivojlanganligi, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati, oziq-ovqat ta'minoti, yashash sharoitining qulayligi, reproduktiv salomatlik holati hamda xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, faol dam olish uchun bo'sh vaqt mavjudligi, mehnat va dam olish rejimini oqilona tashkil etish, kun tartibiga amal qilish kabi omillar ham sog'lom turmush tarzining muhim metodik asoslaridan biri hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalar shaxsning o'z faoliyatini anglash va boshqarish qobiliyati bilan ham bog'liqdir. Jumladan, hayotiy maqsadlarni belgilash, ijodiy ehtiyojlarni amalga oshirish, mustaqil takomillashishga intilish, o'z-o'zini nazorat qilish, emotsional holatlarni boshqarish hamda ehtiyotkorlikka asoslangan xulq-atvorni shakllantirish mazkur kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda to'laqonli uyqu, ratsional ovqatlanish, chiniqish mashqlari, ijobiy emotsiyalar bilan bog'liq faoliyat turlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Salbiy odatlardan voz kechish — ichimlikbozlik, giyohvandlik, chekish,

o'yinga berilish kabi holatlarga qarshi immunitet shakllantirish ham sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga turli jismoniy faol harakatlar — sport o'yinlari, sayr-sayohatlar, yugurish, suzish, velosiped haydash, raqs, mehnat faoliyati kabilar o'quvchilar salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tibbiy faollik ham sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda shaxsiy va jamoaviy gigiena qoidalariga amal qilish, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish, sanitar-gigienik va ekologik savodxonlikni oshirish, tabiat hamda ijtimoiy muhit bilan uyg'un munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'quvchilar salomatligini muntazam monitoring qilish, sifatli ovqatlanishni tashkil etish, ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhit yaratish kabi omillar ham sog'lom turmush tarzini shakllantirish samaradorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan sog'lom turmush tarzini qaror toptirish tiklovchi vositalar va sog'lomlashtirish imkoniyatlarini ta'minlashni ham talab etadi. Jumladan, suzish havzalari, trenajyorlar, massaj, gidromassaj, fitoterapiya, parhez ovqatlanish, jismoniy mashqlar hamda musiqiy-estetik faoliyat turlari o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holatini tiklashga xizmat qiladi. Shuningdek, kundalik hayot va o'quv faoliyati rejimini yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish ham sog'lom

turmush tarzining barqaror shakllanishini ta'minlovchi muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Umuman olganda, sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mazkur shart-sharoitlar o'quvchilarning jismoniy, ma'naviy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks ta'minlovchi nazariy-metodik asoslarni tashkil etadi.

Sog'lom turmush tarzi pedagogik nuqtai nazardan yaxlit tizim sifatida qaralib, u o'zida o'quvchilarning jismoniy, ma'naviy-axloqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi bir necha muhim tarkibiy komponentlarni birlashtiradi. Mazkur tizimning birinchi tarkibiy qismi o'quvchilarning salomatlikni mustahkamlashga oid tarixiy-ma'naviy bilimlarni egallashlari bilan bog'liq bo'lib, bunda zardo'shtiylik merosi, islomiy madaniyat, ajdodlarimiz hamda jadid ma'rifatparvarlari qarashlari muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Ikkinchi komponent o'quvchilarning maqsadga muvofiq harakatlanish madaniyatini egallashlarini nazarda tutadi, ya'ni jismoniy faollikni ongli tashkil etish, harakat rejimini boshqarish va sog'lom jismoniy rivojlanishga erishish kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog'liqdir. Uchinchi komponent ratsional ovqatlanish me'yorlariga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. To'rtinchi komponent esa o'quvchilarning emotsional-irodaviy sohasini rivojlantirish, his-tuyg'ularni boshqarish madaniyatini egallash hamda ijobiy psixologik holatni saqlash

kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Psixologik jihatdan ijobiy emotsiyalar o'quvchilarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qilsa, salbiy kechinmalar destruktiv ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda emotsional barqarorlikni ta'minlash muhim metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sog'lom turmush tarziga amal qilish insonning ma'naviy-axloqiy kamolotini, jismoniy salomatligini va hayotiy faolligini barqarorlashtiradi, uning ijodiy salohiyatini oshiradi hamda hayotdan qoniqish hissini shakllantiradi. Natijada o'quvchilarning surunkali kasalliklarning oldini olish, salbiy omillarga qarshi immunitet hosil qilish hamda ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini ongli ravishda egallashga barqaror motivatsiya hosil qilish uchun amaliy ko'nikmalar va xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan sport va jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish, bolalar salomatligini muhofaza qilish, to'g'ri ovqatlanish tizimini takomillashtirish, sport menejerlari tayyorlash, sport sanoatini rivojlantirish hamda sport infratuzilmasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ayniqsa sport inshootlarining sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi o'quvchilarning sog'lom rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning jismoniy yuklamalarini optimalashtirish, ularni musiqa, jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga qiziqtirish, jismoniy-estetik tarbiyaning shakl, vosita va metodlarini yangilash ham muhim pedagogik vazifalardan biridir. Shu bilan birga o'quvchilarning salomatlik holatini baholash mezonlarini muntazam takomillashtirish, sport sohasida zamonaviy ilmiy yondashuv va texnologiyalarni joriy etish, murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirish zarurati ham ortib bormoqda.

O'quvchilar orasida sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmalarini faollashtirish, ularning jismoniy rivojlanish darajasini oshirish hamda sport orqali ijtimoiylashuvini ta'minlash sport musobaqalarining muhim pedagogik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Sport musobaqalari va tanlovlar o'quvchilarning ijtimoiy tajriba orttirishiga, jamoaviylik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy moslashuv kompetensiyalarini rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sog'lom turmush tarzi g'oyalarini oila, ommaviy axborot vositalari, pedagogik jamoatchilik hamda tengdoshlar orqali keng targ'ib qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik sharoitida sport musobaqalarini tizimli tashkil etish o'quvchi-yoshlar ongida sog'lom turmush tarzining ahamiyatini anglash, ma'naviy, jismoniy, intellektual va mehnat tarbiyasining uyg'un tizimini shakllantirish, shaxsiy va milliy xavfsizlikni mustahkamlash hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi

barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarning axloqiy, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy salomatligini barqarorlashtirishning muhim ijtimoiy-pedagogik asoslarini yaratadi.

**Xulosa.** Ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u shaxsning jismoniy, ma'naviy-axloqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks ta'minlovchi integrativ jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari sog'lom turmush tarzi kompetensiyalari o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning hayotiy faoliyatga moslashuvchanligi, irodaviy barqarorligi hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari tarixiy-ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, jismoniy faollik madaniyati, ratsional ovqatlanish hamda emotsional barqarorlik kabi tarkibiy komponentlarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda sport va jismoniy tarbiya faoliyatining pedagogik imkoniyatlari yuqori samaradorlikka ega bo'lib, ular o'quvchilarning sog'lom

hayotiy qadriyatlarini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi immunitet hosil qilish hamda ijtimoiylashuv jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi ta'lim jarayonini ma'naviy tarbiya, jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan integratsiyalash, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda sport musobaqalari va sog'lomlashtirish tadbirlaridan maqsadli foydalanish orqali ta'minlanishi aniqlandi. Shu bilan birga sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhit hamkorligining muhimligi asoslab berildi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti bo'lib, u jamiyatda sog'lom avlodni shakllantirish, yoshlarning hayotiy faolligini oshirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda ishlab chiqilgan nazariy-metodik yondashuvlar amaliyotda qo'llanilganda o'quvchilarning salomatlik darajasi, ma'naviy yetukligi va ijtimoiy moslashuvchanligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 04.09.2015 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 465-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30-oktyabrdagi "Sog'lom tumush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-oktyabrdagi "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 235-sonli Qarori.
8. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2003. – 224 b.
9. Pedagogika: ensiklopediya /Tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.– 315 b.

**Хамидходжаева Назира Махкамовна**

Университет Ал Фраганус

Ст преподаватель

## **РУССКИЙ ЯЗЫК В ВУЗАХ С НАЦИОНАЛЬНЫМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ**

**Annotatsiya:** Ta'lim milliy tilda olib boriladigan universitetlarda rus tilining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritish bugungi ta'lim tizimi uchun juda muhimdir. Mamlakatimizda ta'lim davlat tilida, ya'ni milliy tilda olib borilishi qonun hujjatlari bilan ta'minlangan bo'lsa-da, rus tili o'quv jarayonida o'ziga xos mavqe egallab kelmoqda. Bu esa ta'lim sohasida yuzaga kelgan talablar, tarixiy va madaniy omillar, shuningdek, ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining global xarakteri bilan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, rus tili, muloqot, ilm-fan, texnologiyalar, ko'nikmalar, resurslar, til, hamkorlik, tahlil, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim dasturlari.

**Аннотация:** Для современной системы образования крайне важно говорить о роли и значении русского языка в вузах, где обучение ведётся на национальном языке. Хотя в нашей стране законодательством предусмотрено обучение на государственном языке, то есть на национальном языке, русский язык продолжает занимать особое место в образовательном процессе. Это объясняется требованиями, возникшими в сфере образования, историческими и культурными факторами, а также глобальным характером развития науки и технологий.

**Ключевые слова:** образование, русский язык, коммуникация, наука, технологии, навыки, ресурсы, язык, сотрудничество, анализ, научные исследования, образовательные программы.

**Abstract:** It is very important for today's education system to talk about the role and importance of the Russian language in universities where education is conducted in the national language. Although in our country education is provided for by legislation in the state language, that is, in the national language, the Russian language continues to occupy a special place in the educational process. This is explained by the requirements that have arisen in the field of education, historical and cultural factors, as well as the global nature of the development of science and technology.

**Keywords:** education, Russian language, communication, science, technology, skills, resources, language, cooperation, analysis, scientific research, educational programs.

### **ВВЕДЕНИЕ**

Русский язык широко распространён в основном в среднеазиатском регионе на протяжении пяти

десятилетий, и, поскольку многие научные и образовательные ресурсы сосредоточены именно на русском языке, его изучение в

университетах, где предоставляется образование на национальном языке, является одной из важных задач. Тем более, что в области естественных наук, математики, техники много теоретических и практических ресурсов русского языка, научная литература на этом языке отличается высоким качеством, обеспечивает студентов необходимыми навыками для интеграции в международное научное сообщество. Преподавание русского языка в вузах, где обучение ведется на национальном языке, дает учащимся доступ к дополнительным источникам знаний. Потому что многие научные статьи, учебные пособия и материалы по повышению квалификации доступны именно на русском языке. Это позволит студентам получить более широкую перспективу, освоить современные подходы к научным исследованиям и практике. Таким образом, изучение русского языка рассматривается как важный инструмент не только для улучшения языковых знаний, но и для развития сотрудничества в научной и культурной сфере.

### **АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ**

В настоящее время различают две однородные грамматики: лингвистическую и педагогическую. Под лингвистической грамматикой понимается совокупность базовых языковых единиц, грамматической структуры и правил языка. Педагогическая грамматика, с другой стороны,

является адаптированным вариантом лингвистической грамматики в зависимости от возраста учащихся, уровня знаний, родного языка. Это понятие впервые было введено Н. Введенным Хомским, ученый утверждает, что структура, выражение и объяснение грамматических правил должны быть изменены, адаптированы в зависимости от индивидуальных особенностей обучающихся (возраст, родной язык, профессия). Есть некоторые важные аспекты преподавания русского языка в образовательном процессе. Во-первых, русский язык способствует повышению способности учащихся к изучению других языков. Изучая различные языковые структуры, студент развивает навыки критического мышления и логического анализа. Во-вторых, через русский язык формируются навыки общения на международном языке науки, что способствует более эффективному проведению научных исследований. В-третьих, русский язык дает дополнительное преимущество при поиске работы в социальной и экономической сферах в государственном и частном секторах, так как многие организации и компании используют русский язык в своей деятельности. Чтобы преподавание русского языка в вузах было эффективным, необходимо уделять особое внимание методике обучения. С учетом тонкостей традиционных методов обучения разрабатываются образовательные системы, основанные на

интерактивных, коммуникативных подходах. Эти подходы побуждают учащихся к активности, укрепляют их устные и письменные навыки. Также внедрение цифровых технологий делает изучение русского языка более увлекательным и эффективным. Благодаря электронным ресурсам, видеоурокам, онлайн-коммуникациям у студентов будет возможность применить язык на практике.[1]

### ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Существуют также некоторые трудности с преподаванием русского языка в вузах, где обучение ведется на национальном языке. Например, Различный языковой уровень учащихся, что требует от преподавателей индивидуального подхода. Грубость и сложные грамматические правила русского языка могут стать препятствием для некоторых учеников. Также необходимы обновления и модернизация образовательных программ, поскольку старые методы могут не полностью охватить учащихся. Поэтому педагоги стремятся повысить качество образовательного процесса за счет применения современных методик, инновационных подходов. Изучение русского языка в образовательных учреждениях на базе национального языка также выступает в роли культурного моста. Он укрепляет связи между двуязычными обществами, способствует культурному обмену и повышает взаимопонимание. Это важный

элемент в обеспечении социальной сплоченности и стабильности. Многолетние пользователи русского языка и связанное с ним богатое культурное наследие делают его изучение более привлекательным и вдохновляют молодое поколение самими собой. Необходимо создать среди учащихся особые стимулы для совершенствования изучения русского языка. Этот стимул повышает мотивацию и побуждает учащихся углубляться в изучение языка. Положительное влияние на изучение языка оказывает организация в вузах клубов и кружков на разных языках, проведение олимпиад по знаниям и конкурсов. Кроме того, программы международного обмена и научные конференции открывают перед студентами ряд возможностей, позволяющих им улучшить практику общения на русском языке и применить свои знания на практике.[2]

Изучение русского языка в вузах, где обучение ведется на национальном языке, дает положительные результаты не только внутри вуза, но и за его пределами. Интеграция этих языков создает более широкие профессиональные и личные возможности для студентов. Благодаря этому студенты становятся конкурентоспособными не только на национальном, но и на международном рынке. Полностью осознавая и применяя возможности русского языка, они находят свое место в научной и культурной сферах,

приобретают новые навыки. При этом важное значение в изучении русского языка в вузах, где образование ведется на национальном языке, имеет государственная политика и образовательная стратегия. Требуется четкое определение языковой политики государством и создание предпосылок для ее реализации. Активное участие государства в разработке образовательных программ, повышении квалификации учителей и совершенствовании методики преподавания языка дает качественные результаты. Таким образом, будет создана система, способствующая общему развитию образования и межэтнической гармонии. Роль русского языка в образовании – это сложный процесс, который формируется на протяжении долгого времени, и особое внимание к нему следует уделять и обучению на мировом опыте. Во многих странах развитие многоязычия рассматривается как одно из основных направлений образования. А это, в свою очередь, в сочетании с национальным стимулирует изучение международных языков, в том числе и русского, и отвечает современным требованиям системы образования. Важность русского языка в вузах, где образование ведется на национальном языке, обусловлена тем, что он стал частью науки, культуры и общественной жизни. Он служит для установления эффективных контактов с носителями языка, проведения научных исследований, изучения

иностранных языков и развития международного сотрудничества. Поэтому сбалансированное и качественное изучение русского языка в образовательном процессе соответствует первоначальным целям образования.[3]

В то время как обучение на национальном языке служит развитию родного языка, сохранению и укреплению культурного наследия, роль русского языка в образовании обеспечивает учащимся широкий кругозор. Сочетание этих двух языков играет важную роль в повышении качества образования и обогащает молодежь через мост между двумя культурами. Полученные таким образом знания и навыки делают их полностью адаптированными к современному обществу, вносят существенный вклад в социально-экономическое развитие страны в будущем.[4]

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Подводя итог, можно сказать, что роль русского языка в вузах, где образование ведется на национальном языке, очень важна и многогранна. Этот язык является не только средством формирования дополнительных языковых навыков, но и подготовкой студентов к интеграции на международном уровне, обеспечению доступа к различным научным и культурным ресурсам. Для эффективного изучения русского языка необходимо внедрение современных методик и технологий, а также проведение мероприятий по

повышению мотивации учащихся. Благодаря государственной политике и активному сотрудничеству образовательных учреждений, в образовательном процессе есть возможность совершенствования русского языка наравне с родным. Это, в свою очередь, способствует успеху молодого поколения в науке, культуре и экономике. Поэтому все вопросы, касающиеся изучения русского языка в

вузах, где образование ведется на национальном языке, должны решаться системно, рассматриваться как важная часть языковой политики и образовательной стратегии. Только в этом случае гарантируется, что учащиеся получают современное и соответствующее студентам образование, а качественные показатели системы образования страны будут доведены до высокого уровня.

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРА**

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДЫ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. Academic research in educational Sciences, (3).
2. Шайхисламов, Н. (2020). Краткое описание функции различения словесного ударения в узбекском и английском языках. Инновационные научные исследования и методы в Узбекистане, 13-14.
3. Джусупов М. Звуковая система русского и казахского языков. Slog. Помехи. Обучение произношению.- Ташкент, 1991. - 240 С.
4. Шайхисламов, Н. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. Научный Прогресс, 7(1), 59-70.
5. Шайхисламов, Н. (2020). In the field of Modern Linguistics-Linguoculturology. Мировая наука, (8), 33-36.
6. Кашкин В.Б. Сопоставительная лингвистика. - М.: Русский язык, 2007.- 180 С.
7. Шайхисламов, Н. (2020). Проблемы социолингвистики: статус языка. Наука и образование в Узбекистане, 3, 279-281.
8. Шайхисламов, Н. (2020). Когнитивная лингвистика, The Symbolic and Interactive functions of Language. Образование и наука XXI века, 1(6), 390-393.
9. Стернин И.А. Сопоставление как лингвистическая методология. - Воронеж, 2015. - 150 С.
10. Шайхисламов, Н. (2020). Использование современных педагогических технологий в развитии науки о родном языке. Вопросы науки и образования в Узбекистане: проблемы и решения,(3), 71-73.
11. Шайхисламов, Н. (2020). Паралингвистические и экстралингвистические средства речи. Научно-практическая деятельность в Узбекистане, 36-37.



Ushbu jurnal Toshkent shahar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining «Ommaviy axborot vositasi sifatida faolyatini amalga oshirish»ga № 060125 raqamli guvohnomasi asosida ruxsat etilgan.

Nashrga ruxsat berildi 15.01.2026 y.  
Bichimi 84/60.1/8. Bosma tabog'I 5.  
«ALFRAGANUS UNIVERSITY» nashriyotida tayyorlandi.

Muharrir: Xolbekov S.

